

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

KAMILOVA NAZOKAT SAIDJONOVNA

**ISAJON SULTON NASRIDA
DINIY-AXLOQIY MOTIVLARNING BADIY SINTEZI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Philological Sciences

Kamilova Nazokat Saidjonovna

Isajon Sul-ton nasrida diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi.....5

Kamilova Nazokat Saidjonovna

The literary synthesis of the religious-ethical motifs in the prose of Isajon Sultan.....29

Камилова Назокат Саиджонова

Художественный синтез религиозных мотивов в прозе Исаджана Султана.....57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works61

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

KAMILOVA NAZOKAT SAIDJONOVNA

**ISAJON SULTON NASRIDA
DINIY-AXLOQIY MOTIVLARNING BADIY SINTEZI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil2728 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximova Bekposhsha Baxadirovna,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Boltayeva Gulchehra Shokirovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Tosheva Nilufar Shirinboyevna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "30" noyabr soat 9 : 00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00, e-mail: www.fil-ik.urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Q-368 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00), e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "30" oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "30" oktabr da 61 - raqamli reestr bayonnomasi).



D.Q.G'ayipov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

S.S.Atajonov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kengashi a'zosi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

A.D.O'razboyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida din va badiiy adabiyotning aloqalari muammosi dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanib, adabiyotning dindan oziqlanishi, unga kuchli ehtiyoj sezishi, diniy-axloqiy tushunchalar bilan badiiy adabiyotning integratsiyalashuvi xususida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Har bir millat, xalqning ma‘naviy dunyosi va ruhiy olamida diniy-axloqiy tushunchalarning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati bor. Bugungi kunda adabiyotshunoslik fani din va badiiy adabiyotning sintezini chuqurroq tadqiq va tahlil etish yo‘lidan bormoqda. Ma‘lumki, diniy motivlarning badiiy asarlardagi sintezi yozuvchilarning g‘oyaviy-estetik niyatini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, adabiyotshunoslik ilmida diniy-axloqiy motivlar aks etgan badiiy asarlarni tadqiq etish mazkur masalaning dolzarbligini bildiradi.

Dunyo adabiyotshunosligida bugungi ilmiy-estetik tamoyillar, Qur‘oni Karim va hadisi sharif ta‘siri natijasida milliy va umuminsoniy, axloqiy g‘oyalar ifodalangan badiiy asarlarni o‘rganish hamda ularning inson ruhiyati va hayotni badiiy kashf etish konsepsiyasi, milliy va umumbashariy qadriyatlar nuqtayi nazaridan tadqiq qilish tamoyillari tobora kengayib bormoqda. So‘nggi davrlarda yaratilgan badiiy adabiyot namunalari xazinasiga qo‘shilgan asarlarda diniy-axloqiy mavzu talqinining ham muhim o‘rin egallaganligi alohida hodisa bo‘lmoqda. Bu kabi asarlarning mundarijasida iymon-e‘tiqod, o‘zlik tuyg‘usi, inson ruhiyati, qalb olami va ma‘naviy-axloqiy dunyosini falsafiy-psixologik tahlil etish ustuvorligi aks etmoqda. Natijada, dunyo badiiy adabiyotida olam va odam munosabatidagi tarixiylik, milliylik, ezgulik kabi umumbashariy qadriyatlarning tasviri chuqurlashib, diniy-axloqiy motivlarning badiiy talqini ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham bu xususiyat istiqloq tufayli yangilanayotgan tafakkurning yetakchi belgisiga aylanib bormoqda. Xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan milliy adabiyotimizda diniy-axloqiy motivlarga tobora keng o‘rin berilmoqda. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Biz xalqimiz, avvalo, yosh avlodimiz, shuningdek, jahon jamoatchiligiga islom dinining insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Islom dini – avvalo, tinchlik va do‘stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma‘rifat dinidir. Mana shu oliy haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim”¹. Shu nuqtayi nazardan, istiqloq yillarida yaratilgan asarlarda bevosita va bilvosita diniy-axloqiy mavzu talqini ifoda etilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Ayniqsa, hozirgi adabiy jarayonda o‘zining qator hikoya, qissa va romanlari bilan tanilgan ijodkorlardan biri, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton asarlari diniy-axloqiy mavzuning ustuvorligi bilan alohida ajralib turadi. Adib nasri mavzu turfaligi, ma‘no teranligi, ramziy-majoziy tasvirlarga boyligi, diniy motivlarning badiiy sintezi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Isajon Sulton ijodida novatorlik va originallik, yangicha tamoyillar, betakror ramziy-majoziylik, diniy-tasavvufiy motivlar yetakchilik qiladi. Shuningdek, bugungi

¹ Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. О‘zbekiston. 2021. – Б.310.

kunda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan adib ijodidagi badiiy mahorat, falsafiylik, mifologik qarashlar, folklorizm, ramziylik kabi turli xil mavzularda tadqiqotlar olib borilmoqda. Yozuvchi asarlarida diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi alohida o‘ringa ega bo‘lib, adabiyotshunoslikda monografik tarzda to‘liq o‘rganilmagan. Shu bois, mazkur masalaning o‘rganilishi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon va rus adabiyotshunosligida islom dini hamda uning badiiy adabiyotga ta‘siri, motiv nazariyasi, diniy-axloqiy mavzu talqini masalasida bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, R.Nikolson, V.Bartold, I.Krachkovskiy, O.Suxareva, J.Nurbaxsh, A.Mets, I.Garin, R.Frager, A.Kudelin, I.Silantev, G.Tsikunova² va boshqa ko‘plab olimlarning tadqiqot ishlarida masalaning ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganilgan fundamental tadqiqotlar yaratilgan.

O‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan, asosan, istiqlol yillarida qur‘oniy mavzularning milliy adabiyotimizda aks etishi, diniy va dunyoviy adabiyotlar mushtarakligi borasida, shuningdek, diniy-axloqiy mavzudagi asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar maydonga kelmoqda. Tadqiqotlarda badiiy adabiyotda diniy-axloqiy mavzudagi asarlarning mazmun-mohiyati, diniy motivlarning badiiy talqini va o‘ziga xos xususiyatlariga atroflicha e‘tibor qaratib kelinmoqda. Mavzu borasidagi tadqiqotlarni olimlarning fikr-xulosalariga tayangan holda shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga diniy mavzuga mumtoz adabiyotimizning durdona asarlari tahlili nuqtayi nazaridan yondashgan H.Karomatov, Sh.Sirojiddinov, M.Rajabova,

² Nikolson R.F. Literary History of the Arabs. London.1903; Бартолд В.В. Учение мусульманского Ренессанса. Соч.Т.ВИ. – М.: Наука, 1963; Крачковский И. Арабская поэтика в IX веке / Изб. Соч. – М.: Академия наук, Т.II. – 1956; Сухарева О.А. Ислам в Узбекистане. – Т.: Издательство, 1960; Нурбахш Дж. Иисус глазами суфиев. – М.: Мистика, 2022; Мец А. Мусульманский Ренессанс. –М.: Наука, 1973; Гарин И. Пророки и поэты. – М.: Терра, 1992; Фрагер Р. Kalp nafs ve ruh / Түрік тіліне ауд.: Ибрахим Капаклыкая. – Стамбул: Геленек, 2011; Куделин А. Арабская литература: поэтика, стилистика, взаимосвязи. – М.: Языки славянской культуры, 2003; Силантёв, И.В. Мотив в системе художественного повествования. – Новосибирск: НГПУ, 2001; Цыкунова Г.М. Религиозные и философские идеи, мотивы, образы в художественном мире. – Москва. 2005.

T.Shermuratov, O.Davlatov, B.Jalilov, U.Qobilov, J.Bo‘riyev³ kabi qator olimlarning monografik tadqiqotlarini kiritish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda mumtoz adabiyotimizning yirik namoyondalari Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Durbek, Nosiriddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziy, Boborahim Mashrab, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoir-u mutafakkirlarning asarlaridagi Qur‘on oyatlari va muqaddas hadisi sharif g‘oyalarning badiiy talqinlari keng ko‘lamda yoritib berildi. Ayniqsa, millat adabiyotining yuksak cho‘qqisi bo‘lgan Alisher Navoiy yaratgan bebaho asarlardagi diniy-axloqiy motivlar komil inson g‘oyasini ilgari surish va islom dinining badiiy adabiyotga ta‘siri masalasini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida yaratilgan asarlardagi diniy mavzu tadriji, axloqiy-estetik va umuminsoniy g‘oyalarning zamonaviy badiiy adabiyotdagi in‘ikosi nuqtayi nazaridan yondashgan olimlar tadqiqotlarini kiritish mumkin. Istiqlol adabiyotida diniy-axloqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy mavzudagi asarlar qamrovi kengayib, bu boradagi tadqiqotlar salmog‘i ham ortib bormoqda. Jumladan, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Rahimjonov, H.Karimov, B.Karimov, N.Jabborov, U.Jo‘raqulov, T.Shermurodov, S.Raimova⁴ kabi qator olimlarning mavzu yuzasidan maqolalari va maxsus tadqiqotlari e‘lon qilindi.

Zamonaviy o‘zbek nasri taraqqiyotida sermahsul ijod qilayotgan Isajon Sulton nasri xususida ham bir qator tadqiqotlar yaratildi. Shuningdek, adibning asarlari xorijlik adabiyotshunoslarning ham e‘tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Jumladan, Kristofer Fortning “Isajon Sulton va postmodernizm” (AQSh), Viktoriya Kaseresning “Isajon Sulton bilan O‘zbekistonga sayohat” (Argentina), Husayn Boydemirning “Bog‘i Eram”ning Turkiyadagi nashriga so‘zboshi⁵ (Turkiya) kabi maqolalarida adib asarlari haqida iliq fikrlar bildiriladi.

Isajon Sulton asarlarida diniy ta‘limotning teran falsafasi badiiy aks etadi. Ularning hozirgi zamondagi o‘rni va ahamiyatiga e‘tibor – asarlari g‘oyasi va qahramonlari tabiatidagi hamda muallif falsafiy qarashlaridagi qudratli to‘lqinlarning asosini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti tomonidan nashr qilingan “Isajon Sulton

³ Кароматов Х. Куръон ва ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1993; Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари / Монография. – Т.: Янги аср авлоди, 2011; Ражабова М. Алишер Навоий “Назм ул-жавохир” асарининг манбалари ва бадиияти: Филол. фанлари номзоди.дисс. автореф. – Самарқанд, 2006; Шермуродов Т. Жозиб изҳор излаб. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. Жалилов Б. Диний-маърифий мавзуларнинг бadiий адабиётдаги талқини. – Т.: 2010; Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Куръон оятлари ва ҳадисларнинг бadiий талқини. Филол.фан.б.фалс.док.дисс. автореф... – Самарқанд, 2017; Қобилов У. Ўзбек адабиётда нубувват мотиви ва образлари талқини: Филол.фан. д-ри...дисс.автореф. – Самарқанд, 2019; Bo‘riyev J. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida diniy motivlar. Filol.fanl.b.fals.doktori (PhD) diss.avtoreferati. – Toshkent. 2023.

⁴ Шарафиддинов О. Адабиётда диний оҳанглар // Танланган асарлар. – Тошкент. Шарк, 2019; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент. Фан, 2007; Каримов Х. Ислом асотирлари ва ғояларининг бadiий талқини // Истиклол даври адабиёти. – Т.: Yangi nashr, 2010; Каримов Б. Моҳиятга элтувчи йўл // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2018 йил 1 сентябрь; Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 2015; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа, 2015; Шермуродов Т. Жозиб изҳор излаб. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2009; Raimova S.Z. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida diniy-ma‘rifiy she‘rlar talqini. Monografiya, – Toshkent: Muharrir, 2023.

⁵ Исажон Султон насри бадиияти. – Тошкент. Турон замин зиё, 2017. – Б.352-260.

nasri badiiyati”⁶ kitobi adib ijodining ilmiy tadqiq qilinishida alohida ahamiyatga ega hodisa bo‘ldi. Ushbu kitob Isajon Sulton nasriga oid ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, to‘plamda zamonaviy o‘zbek adabiyotining eng ko‘zga ko‘ringan olim-u ijodkorlarining Isajon Sulton ijodi haqidagi ilmiy-mushohadaviy fikrlariga guvoh bo‘lish mumkin. Xususan, U.Normatov o‘z maqolasini “Yetuklik jozibasi”, I.G‘afurov “Yozuvchi, tabiat, tabiiyot”, B.Nazarov “Irsiyat muammolarining badiiy talqini”, A.Rasulov “Akslar falsafasi”, U.Hamdani “Oydinbuloq oydinligi”, Z.Qobilova “Barkamol avlod orzusi”, M.Otajonova “Bog‘i Eram” hikoyasida animatik mifologiya va uning xususiyati”, M.Quchqorova “Mehmon” va “Bo‘ri” hikoyalarda assotsiativ tafakkur usuli” deya nomlaydi. Ushbu nomlashlarning o‘ziyoq adib ijodining rang-barangligi va tadqiqotlab nuqtalarining ko‘pligini hamda bir qator tadqiqotchilariga ham egaligini ko‘rsatadi. Isajon Sulton nasri, jumladan, hikoyalari xususida ham qator tadqiqotlar yaratildi. U.Normatov, A.Rasulov, I.G‘afurov, Q.Yo‘ldoshev, U.Hamdani, R.Rahmat⁷ va boshqalarning tadqiqotlarida Isajon Sulton asarlari tahlilga tortiladi.

Shuningdek, I.Yoqubov, M.Quchqarova, N.Tosheva, N.Sultanova, I.Saymuratova, F.Kurbanova, S.Quronov, G‘.Urazbayev⁸ kabi adabiyotshunoslarning Isajon Sulton nasri masalalariga doir maxsus tadqiqot ishlari ham maydonga keldi.

Ta’kidlanganidek, Isajon Sulton nasriga oid bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, biroq ularning hech birida adib asarlarida diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi masalalari maqsad qilib olinmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqotlar rejasiga muvofiq, “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasining “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon” mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Isajon Sultonning “Qismat”, “Manzil”, “Sofiya” hikoyalari, “Avvalgilarga o‘xshamas”, “Robiya Balxiy” qissalari, “Boqiy darbadar”,

⁶ Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent. Turon zamin ziё, 2017.

⁷ Normatov U. Yetuklik jozibasini // Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent. Turon zamin ziё, 2017. – B.10; Rasulov A. Shafoat ёғдусидан бахрамандлик // Шарқ юлдузи, 1991, №10; Гафуров И. Ёзувчи, табиат, табиёт // Isajon Sulton nasri badiiyati. – Toshkent. Turon zamin ziё, 2017. – B.19; Ёўлдошев Қ. Роман ва бугунги ўзбек романчилиги // Шарқ юлдузи. – Toshkent. 2011, №4. – B.131; Улуғбек Ҳамдам. Ойдинбулок ойдинлиги // Бадий тафаккур тадрижи. – Toshkent. Янги аср авлоди, 2002. – B.184; Раҳмат. “Муножот”дан “Боқий дарбадар”гача // Сulton И. Боқий дарбадар. Toshkent. 2011. – B.267.

⁸ Ёқубов И.А. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: монография. – Toshkent: Nurafshon business, 2021. – B.336. Кучкарова М.Х. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик. Филол.фан.док. ...дисс. – Т.: 2020. – B.280; Тошева Н.Ш. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Isajon Sulton nasri мисолида): Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Т.: 2020. – B.125; Султонова Н.Н. Isajon Sulton романларида бадий компонентлар модификацияси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Қарши: 2020. – B.142; Saymuratova I.T. Istiqloq davri o‘zbek romanlarida shakl va uslub (Xurshid Do‘stmuhammad va Isajon Sulton romanlari misolida). Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Guliston: 2023; – B.49. Quronov S.D. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida inson konsepsiyasi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Toshkent: 2024. – B.235. Kurbanova F.A. Isajon Sulton hikoyalarda folklorizm va mifopoetik talqin. Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. –B.52; Urazbayev G‘.K. Isajon Sulton nasri poetikasi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Urganch: 2024. – B.148.

“Ozod”, “Genetik” romanlarida diniy-axloqiy motivlar, irfoniy ma’nolarning badiiy sintezi asosida yozuvchining poetik mahoratini ko‘rsatib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

diniy-axloqiy motivlarning zamonaviy adabiyotdagi talqini va o‘rganilishining ilmiy-nazariy asoslarini dalillash;

Isajon Sultonning hikoya, qissa va romanlarida ifoda topgan diniy-axloqiy motivlarning o‘ziga xos jihatlarini yoritish orqali yozuvchining maqsad-muddaosi va iqtidorini ochib berish;

diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi uchun sabab bo‘lgan omillarning adabiy asardagi badiiy vazifasini asoslash;

Isajon Sulton qissalarida Qur‘on oyatlari va hadislarning badiiy sintezi asosida o‘zbek adabiyotida yozuvchining tutgan o‘rnini ochib berish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Isajon Sultonning “Qismat”, “Manzil”, “Sofiya” hikoyalari, “Avvalgilarga o‘xshamas”, “Robiya Balxiy” qissalari, “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Genetik” romanlari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini Isajon Sultonning diniy-axloqiy mavzu keng talqin qilingan ayrim hikoya, qissa va romanlaridagi Qur‘on oyatlari va hadislar aks etgan motivlar, yozuvchi mahorati va uslubini belgilovchi adabiy-estetik omillarni tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda biografik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, analitik va struktural metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zamonaviy o‘zbek nasrida diniy-axloqiy motivlarning sintezi, xususan, Isajon Sulton hikoya, qissa va romanlarida Qur‘on oyatlari hamda hadislarning syujet, obrazlar tizimi va g‘oyaviy struktura bilan uzviy bog‘liqlikda aks etishi asoslangan;

Isajon Sulton nasrida diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi, xususan, ramziy obrazlar va irfoniy tushunchalar orqali yuzaga kelgan estetik qatlamlar zamonaviy o‘zbek adabiy jarayonida yangi yondashuv sifatida ochilib, adibning diniy-estetik qarashlari poetik tafakkur bilan uyg‘un holda o‘rganilib, dalillangan;

Isajon Sulton asarlarining hozirgi adabiyotdagi ahamiyati, diniy-axloqiy motivlardan foydalanish usullari zamonaviy qarashlar asosida tahlil etilgan hamda ijodkorning hikoya, qissa va romanlarida diniy oyat va hadislardan foydalanish mahorati isbotlangan;

yo‘zuvchi asarlariga xos bo‘lgan syujet, diniy-axloqiy motivlar, obraz, g‘oya, uslub stilizatsiya nuqtayi nazaridan o‘rganilib, yangi xulosalar chiqarilgan va adib asarlaridagi diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezida yozuvchi mahorati qirralari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy o‘zbek nasrida diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi ijtimoiy-estetik qadriyatlar, umuminsoniy g‘oyalar aloqadorligi mahoratli adib Isajon Sulton hikoya, qissa va romanlari misolida o‘rganildi. Bu orqali zamonaviy-badiiy manbalardagi diniy-axloqiy motivlarga adabiyotshunoslik yondashuvlari nazariy jihatdan umumlashtirildi. Shu bilan birga, diniy-axloqiy motivlarni tadqiq etish usullari, o‘ziga xos xususiyatlari va yo‘nalishlari aniqlandi.

Isajon Sulton nasrida Qur'on oyatlari va hadislarining, diniy-axloqiy qadriyatlarning o'rni, ahamiyati tizimli ravishda o'rganilib, mazmun-mohiyati yangi tahlil va tadqiq usullari asosida ochib berildi.

Isajon Sulton nasrida ifodalangan diniy-axloqiy motivlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotga, madaniy-ma'rifiy qarashlarga ta'siri o'rganilib, diniy-ijtimoiy tarbiya xususiyatlarining didaktik mazmuni tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy va nazariy ma'lumotlar, janrlar munosabati bo'yicha tahlillar, xulosalar, qiyosiy-tarixiy, badiiy-estetik, diniy-badiiy, struktural usullarga asoslanganligi, nazariy mushohada va takliflarning amaliyotda qo'llanganligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotdagi natijalar va ilmiy-nazariy xulosalar zamonaviy o'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti munosabatlari, shuningdek, hikoya, qissa va roman janrlarining badiiy-diniy, badiiy-estetik xususiyatlarini yaxlit o'rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular diniy-axloqiy motivlarning zamonaviy o'zbek adabiyoti nasrida va obrazlar tizimida tutgan o'rnini baholashda qo'llaniladi. Shuningdek, ishda tahlil etilgan muammolar yechimi, materiallar va xulosalar oliy ta'lim muassasalari filologiya ta'lim yo'nalishlari talabalari va magistratura mutaxassisliklarida qo'shimcha material sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Isajon Sulton nasrida diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi" tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan:

Isajon Sulton hikoyalarida diniy ramzlar sintezi va ularga sabab bo'lgan omillar, yozuvchi qissalarida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy sintezi, "Boqiy darbadar" romanida Iso alayhissalom timsoli va ramziy darbadarlik tushunchasi kabi dissertatsiya tahlillari va xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan FA-F-1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2025-yil 20-fevraldagi 83/1-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy va badiiy tahlillar loyiha doirasidagi adabiy manbalarni zamonaviy yondashuv asosida talqin etishda ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning zamonaviy o'zbek nasrida diniy-axloqiy motivlar va ularga yondashuv, Isajon Sulton hikoya va qissalarida diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi va timsollarning yoritilishi, diniy-axloqiy motivlar sintezi jarayonida yozuvchining badiiy mahorati kabi masalalar dalillanganligiga doir xulosa va tavsiyalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan PF-201912258-raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 10-iyuldagi № 01/01-3046-son

ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada asoslab berilgan nazariy xulosalar va badiiy tahlillar mazkur loyiha doirasida diniy-axloqiy motivlarning badiiy talqini, ramziy obrazlar hamda zamonaviy o'zbek nasridagi yondashuvlarni elektron platformada tizimli aks ettirishda metodik asos sifatida xizmat qilgan.

Xorazm viloyati teleradiokanali davlat muassasasining "Assalom, Xorazm" musiqiy dam olish dasturi, "Nafosat", "Ma'rifatnoma", "Adabiy muhit", "Milliy totuvlik" ko'rsatuvlari, "Siz nima deysiz?!" tok-shousi, "Qadriyat", "Najot bilimda" eshittirishlari ssenariylarida tadqiqotning Isajon Sultonning xalqaro tanlovlar g'olibi ekanligi, jahon adabiyotining adib ijodiga ta'siri va ijodkor nasrida diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi bilan bog'liq xulosalardan foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 6-martdagi 214-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan Isajon Sulton ijodidagi diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi borasidagi xulosalar ommaviy axborot vositalarining adabiy-ma'rifiy dasturlari ssenariylarini tayyorlashda nazariy-metodik asos sifatida qo'llanilgan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyati bo'limi tomonidan o'tkazilgan turli adabiy-ma'rifiy tadbirlarda, xususan, zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyondalari, Isajon Sulton ijodi bo'yicha tashkil etilgan anjumanlarda diniy-axloqiy motivlarning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi in'ikosi, yozuvchi hikoyalarda diniy ramzlar sintezi, "Ozod" va "Genetik" romanlarida diniy-ma'rifiy motivlarning badiiy sintezi jarayonida yozuvchi mahorati yoritilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyati bo'limining 2025-yil 7-martdagi 28-son ma'lumotnomasi). Natijada yuqoridagi mavzular yuzasidan anjuman va tadbir ishtirokchilarining bilimlari oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta xalqaro konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 5 ta, xorijiy jurnalda 2 ta; respublika jurnalida 2 ta; xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallarida (3 ta xalqaro, 3 ta respublika anjumanlarida) dissertatsiya natijalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot ishining hajmi 157 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi qayd etilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi bayon qilingan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, e'lon

qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Istiqlol davri nasrida diniy-axloqiy motivlar talqinining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, u ikki faslni o'z ichiga olgan. Bobning birinchi fasli *“O'zbek adabiyotshunosligida diniy-axloqiy motivlarning o'rganilishi”* deb nomlanadi. Unda diniy-axloqiy motivlarning o'zbek adabiyotshunosligida tadqiq qilinishi haqida so'z boradi.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixidan ma'lumki, islom dinining mohiyatini aks ettirgan muqaddas oyatlar va muborak hadislar ma'no-mazmuni badiiy asarlar ichida keng o'rin egallagan. Xususan, payg'ambarlar tarixi va ularning axloqi, diniy qiyofalari haqida yozilgan asarlar nafaqat badiiy adabiyot, balki ma'naviyatning ham muhim bir qismidir. Bunday asarlar orqali insonlar ma'naviy kamolotga erishish, odob-axloqni yuksaltirish va hayotga chuqurroq nazar bilan qarash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida diniy-axloqiy mavzularni o'rganish va bu orqali jamiyatdagi o'zgarishlar, ularning inson ma'naviy dunyosiga ta'siri, axloqiy qadriyatlar va an'analar bilan bog'liq masalalarni chuqur tahlil qilish zarurati paydo bo'ldi. Bu jarayonda adabiyotshunoslar tomonidan olib borilayotgan izlanishlar, ularning tadqiqot va tahlillari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu sohada ilmiy-tadqiqot uslublarini takomillashtirish, o'quvchilar va adabiyot ixlosmandlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Diniy-axloqiy mavzudagi asarlar mazmun-mohiyatiga, uning ming yillik an'ananing davomi va alohida yo'nalish sifatidagi takomiliga, o'ziga xos xususiyatlari tadqiqiga mustaqillikning dastlabki yillaridan bugungi kunga qadar o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan e'tibor qaratilib kelinmoqda. Adabiyotshunos olim Hamidulla Karomatovning *“O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari (adabiy-tarixiy tahlil)”* nomli tadqiqotida Qur'oni karimning jahon adabiyotiga ta'siri, undagi mavzularning o'zbek adabiyotida aks etishi, adabiy-estetik xususiyatlari va tarixiy ildizlari haqida keng ko'lamlil tahlillar berilgan. Muallif diniy motivlarning qadimiy yozma yodgorliklardan tortib, zamonaviy badiiy ijodga qadar qanday rivojlanganini ko'rsatadi. Olim Qur'oni karimning mohiyati umuminsoniy qadr-qimmatlar bilan yo'g'rilganligi bois milliy adabiyotimizning jahon adabiyotida tutgan o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishini ham ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizning g'oyalar dunyosini va obrazlar tizimini Qur'oni karimdan chuqur bilimga ega bo'lmay turib ochib berish mumkin emasligini isbot qilib beradi.

Tasavvufshunos Najmiddin Komilovning mustaqillik yillarida yaratilgan *“Tasavvuf”* nomli tadqiqotida tasavvuf falsafasidagi shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat kabi komillikning asosiy darajalari, chin oriflik va oshiqning yo'l-yo'riqlari tahlil qilinadi. Bu asar orqali muqaddas dinimizning asl qiyofasi aks etgan, istiqloq sharofati tufayli bo'y ko'rsatayotgan diniy-tasavvufiy ruhdagi asarlarni tadqiq etish, ijod ahli olib kirayotgan komil inson qiyofasidagi badiiy obrazning xarakter xususiyati, lirik qahramon tabiatidagi o'zgarishlarni his etish imkoni tug'ildi.

Ozod Sharafiddinovning “Adabiyotda diniy ohanglar” asarida diniy mavzularning adabiyotda aks etishi, yozuvchi va shoirlarning asarlarida diniy ohanglarning badiiy talqini haqida soʻz yuritiladi. Maqolada XX asr va mustaqillik davri adabiyotida diniy-falsafiy tafakkurning oʻziga xos jihatlari, tasavvufiy qarashlarning sheʼriyat va nasrga taʼsiri va diniy motivlarning badiiy sanʼat bilan uygʻunlashuv jarayoni haqida atroflicha maʼlumot berilgan.

Maʼlumki, diniy-axloqiy, falsafiy-estetik va umuminsoniy gʻoyalar ifodalangan qurʼoniy mavzular Alisher Navoiy ijodining asosini tashkil etadi. Jahon adabiyotshunosligi va navoiyshunoslikning peshqadam ilmiy-nazariy yondashuvlari asosida Alisher Navoiyning lirik merosi va dostonlaridagi oyatlar va hadislarining namunalarini aniqlash, ushbu oyat va hadislarining matni va mazmunini tegishli badiiy maqsadlarga koʻra qoʻllash masalalari boʻyicha qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Olimjon Davlatovning “Alisher Navoiy sheʼriyatida Qurʼon oyatlari va hadislarining badiiy talqini” nomli tadqiqotida Alisher Navoiy ijodida Qurʼon oyatlari va hadislardan foydalanish tamoyillari yoritilgan. Muallif Navoiy asarlaridagi diniy motivlarning poetik maʼnosi, ularning badiiy shakllanishi va ularga yozuvchi tomonidan berilgan talqinlarni tahlil qiladi. Dissertatsiya Alisher Navoiyning diniy-axloqiy qarashlarini tushunish va ularning sheʼriyatdagi aksini anglash uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida diniy-axloqiy motivlarning tadqiqi milliy adabiyotimiz va madaniyatimizning muhim jihatlaridan biri sifatida doimiy eʼtiborda boʻlib kelgan. Ushbu mavzu diniy va axloqiy qadriyatlarning badiiy asarlardagi ifodalanish usullari, ularning maʼnaviy-maʼrifiy ahamiyati hamda adiblarning badiiy mahorati bilan bogʻliq jihatlarni oʻrganish orqali boyitilmoqda. Zamonaviy oʻzbek adabiyotshunosligida diniy-axloqiy motivlarni tahlil qilish turli nazariy yondashuvlar asosida olib borilmoqda. Jumladan, badiiy asarlardagi axloqiy gʻoyalarning falsafiy, estetik va tarbiyaviy jihatlari oʻrganilmoqda. Ayniqsa, mustaqillikdan soʻng adabiyotshunoslikda diniy mavzularni tadqiq etishga nisbatan keng imkoniyatlar yaratildi, bu esa oʻzbek adabiyotining oʻziga xos jihatlarni yanada koʻproq anglashga xizmat qilmoqda. Diniy-axloqiy motivlar adabiyotda har doim insoniy fazilatlarini tarannum etish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni yuksaltirishda muhim omil boʻlib qoladi.

Bobning ikkinchi fasli “*Zamonaviy oʻzbek nasrida diniy-axloqiy motivlar va ularning talqini*” deb nomlanib, unda zamonaviy nasrda diniy-axloqiy motivlarning qoʻllanilishi komil inson gʻoyasini kamol toptirishda muhim jihat ekanligi xususida soʻz boradi.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov: “Bashariy qadriyatlarning mohiyatini anglash – bu oʻzlikni bilish sari qoʻyilgan sobit qadam. Rabbimni tanishdan boʻlak maʼrifat va Allohni unutishdan ortiq jaholat yoʻq. Oftob nuri – Qodir Egamning nazari. Buni bilmaslikka hech kimning haqqi yoʻq. Shaxs va jamiyat oʻzini insoniy xislat-fazilatlar bilan yanada goʻzallashtirish uchun hamisha yangi-yangi imkoniyatlar izlaydi. Adabiyot ana shu jarayonni badiiy idrok va ifoda etishning yangi yoʻllarini qidiradi. Bugun diniy merosga tayangan maʼrifat yoʻli inson ruhiyati butunligini, iymon-eʼtiqod salomatligini taʼminlash omillaridan biri sifatida koʻzga

tashlanayotir. Islomda odamga munosabat nihoyatda baland. Shu ideologiyaning ruhoniylashishida sobit mavqei egallashi, albatta, foydali. Negaki, iymonsiz sog‘lom jamiyat qurish mumkin emas”⁹ – deya bugungi kun jamiyati, xususan, adabiyot uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan fikr-mulohazalarni bildiradi. Darhaqiqat, iymon-e’tiqodsiz jamiyatda odamlar o‘zaro ishonch va axloqiy qadriyatlarini yo‘qotishi mumkin, bu esa ijtimoiy munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi. Diniy e’tiqod, iymon insonning ichki ishonchi, ruhiy barqarorligi bo‘lib, uning ruhiyatini shakllantiradi va ijtimoiy-siyosiy hayotning insoniylashuvida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham mumtoz badiiy asarlarda dinning inson hayotidagi o‘rni va iymonning ahamiyati ko‘plab ta’kidlanadi. Diniy e’tiqod, shaxsning ongini va ruhiyatini shakllantirgan holda, uning atrofdagi dunyo bilan munosabatini, qadriyatlar tizimini, axloqiy me’yorlarini belgilaydi. Bu holat, shuningdek, ijtimoiy hayotning odob-axloq, qonunlar va me’yorlar bilan bog‘liq jihatlari ham ta’sir qiladi.

O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov “Adabiyot va zamon” maqolasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Sho‘rolar davrida milliy qadriyatlarimiz, moziydagi qahramonlarimiz qariyb qalamga olinmas, olinganda ham ular sinfiylik va partiyaviylik nuqtayi nazaridan tahlil etilar, qoralanardi, xolos. Diniy e’tiqod esa butunlay manfiy tushunchaga aylantirilgan edi. Bir yoqlamalik, yuzakilik adiblarimizni bir xil ovozda, bir xil ohangda kuylashga o‘rgatib qo‘ygan edi. Faqat baxtni va saodatni kuylash, aslida yo‘q yorqin kelajakni ulug‘lash odat tusiga aylangan edi. Inson hayotidagi turli iztiroblar, ziddiyatlar, mag‘lubiyatlar qatag‘on mavzu hisoblanar, ular aslo rag‘batlantirilmay edi”¹⁰. Darhaqiqat, “din – afyundir”, – deya jar solingan sobiq tuzum davrida bunday mavzularda yozish taqiqlangan, badiiy asarlarda hayotni bo‘yab-pardozlab ko‘rsatish, tinimsiz mehnat kishisini tasvirlash avj olgan edi. Adabiyot ma’lum bir qolipga solingan, senzura bo‘ysundirilgan, ijodkorlar “bir xil ovozda, bir xil ohangda kuylashga” majbur edilar. Shukurki, istiqloq tufayli din va so‘z erkinligi berilgani qadriyatlarimizga qaytish, o‘zlikni tanish imkonini berdi. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida diniy-axloqiy mavzularga keng o‘rin berila boshlandi. Xususan, zamonaviy o‘zbek nasrida ham diniy sarchashmalarga chuqur kirib borish, tasavvufiy ohanglarning keng talqin qilinishi kuzatila bordi.

Mustaqillik davri nasrida S.Ahmad, P.Qodirov, O.Yoqubov, O‘.Hoshimov, O‘.Umarbekov, Sh.Xolmirzayev, E.Samandar, T.Murod, M.M.Do‘st, X.Sultonov, N.Norqobilov, X.Do‘stmuhammad, E.A‘zam, L.Bo‘rixon, N.Eshonqul, A.Yo‘ldoshev, Z.Qurolboy qizi, S.Vafo, U.Hamdani, Sh.Bo‘tayev, Q.Norqobil, I.Sulton kabi turli avlodga mansub bo‘lgan ijodkorlar o‘ziga xos tarzda qalam tebratib, milliy proza taraqqiyotini ta’minlashga o‘ziga xos hissa qo‘shdilar. Tabiiyki, har bir ijodkorning o‘z dunyoqarashi, olamni badiiy idrok etish qobiliyati, obraz va voqelikni tasvirlash manerasi hamda o‘ziga xos uslubi bor. Shu nuqtayi nazardan, bir mavzuning turfa xil badiiy talqinlari vujudga keladi. Xususan, diniy-

⁹ Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.67-68.

¹⁰ Oripov A. Adabiyot va zamon. Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar, badialar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006. – B 5.

axloqiy mavzu ham har bir ijodkorda o'ziga xos tarz-ko'lamda namoyon bo'lib, inson kamolotiga xizmat qiladi. Zero, butun Sharq mumtoz adabiyotini, xususan, milliy adabiyotimizni inson ruhiy-ma'naviy olamiga oid diniy-axloqiy, didaktik mavzulardan ajragan holda tasavvur qilish mumkin emas. "Ko'p asrlik o'zbek adabiyoti tarixida diniy-ma'rifiy mavzuda yozilgan asarlar inson fitratiga mosligi uchun hozirga qadar yashab keladi. Bevosita islom dini va tasavvuf ta'limotiga tayanib yozilgan badiiy asarlar vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asrning birinchi choragidan keyin hukmron mafkura tazyiqi bois ta'qiqlandi.

Mustaqillik yillariga kelib zamonaviy o'zbek adabiyotida diniy-ma'rifiy, tasavvufiy mavzuda yozilgan asarlar paydo bo'ldi. Mavzu tarixi esa, tabiiyki, uzoq o'tmishga borib taqaladi"¹¹. Haqiqatda ham, diniy-axloqiy mavzu ko'p ming yillik adabiyot bilan teng tarixga ega bo'lib, inson tiyatiga, fitratiga yaqinligi, mosligi uchun ham hozirgacha yashab kelmoqda. Ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida mumtoz adiblarimiz yozgan bebaho asarlardagi diniy g'oyalar targ'ibi va tadqiqi nazardan chetda qoldi. Mumtoz asarlar, devonlar, g'azallardagi diniy mazmun va ohanglar noto'g'ri talqin qilinib, oshiq-ma'shuqning vasfini kuylashdangina iborat, degan xato, bir yoqlama tushunchalar yuzaga keldi. XX asr boshida milliy adabiyotimiz xazinasida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari o'zbek xalqining diniy e'tiqodi, milliy odob-ikromi va go'zal axloqiy qadriyatlarini chuqur tasvirlagan yetuk asarlar sifatida alohida e'tirof etiladi. Bu asarlar orqali yozuvchi xalqning urf-odatlarini, e'tiqodlari va kundalik hayotini badiiy ifoda etgan. Asarda o'sha davrdagi dinga munosabat masalasi muallif yondashuvida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, Qodiriy "O'tkan kunlar" asarida "Xudo" so'zini 77 marta, "namoz" so'zini 22 marta qo'llaganligining o'zi ham xalqimiz diniy e'tiqodining qanchalik yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bizningcha, buyuk so'z san'atkori Abdulla Qodiriy "Xudo" va "namoz" so'zlarini aynan 77 va 22 marta qo'llaganligi tasodifiy emasligiga, bu ikki raqamning qo'shiluvi 99 bo'lgani holda, sobit e'tiqodli adib Allohning 99 ismiga ishora qilgan bo'lsa ajab emas. Qodiriy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon kabi daho adiblar o'z asarlarida chinakam iymon va riyo, e'tiqod va soxta dindorlik o'rtasidagi farqni ko'rsatib, ijtimoiy hayotdagi muhim masalalarni yoritdilar.

Istiqlol adabiyotida bu mavzu qayta jonlanib, diniy merosga tayangan ma'rifat yo'li inson ruhiyati butunligi, iymon-e'tiqodini ta'minlash omillardan biri ekanligi isbotlandi. Dastlab, diniy-axloqiy mavzudagi asarlar, ayniqsa, adabiyotning hozirjavob turi bo'lgan she'riyatda jadal namoyon bo'ldi. Istiqloldan keyingi adabiyotimizga Abdulla Oripov "Haj daftari" turkumi orqali birinchi bo'lib diniy-ma'rifiy ruhdagi tavsifiy lirikani olib kirgan ijodkor hisoblanadi. O'zbek nasrida esa S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, O'.Hoshimov, O'.Umarbekov, T.Malik, T.Murod, N.Eshonqul, E.A'zam, L.Bo'rixon, U.Hamdani, I.Sulton kabi nosirlar asarlarida diniy-axloqiy motivlar alohida bo'y ko'rsatdi. Adiblar Qur'on oyatlari hamda hadislardan ilhomlanib, zamonaviy va badiiy mukammal asarlar yaratishga

¹¹ Raimova S. Zamonaviy o'zbek adabiyotida diniy-ma'rifiy she'rlar talqini. Monografiya, – Toshkent: Muharrir, 2023. – B.106.

intildilar. Bunday asarlar inson ma'naviy kamolotiga, ruhiy olamini go'zallashtirishga, Olam va Odam, Yaratuvchi va Yaratilmish haqida falsafiy mushohada yuritishga undaydi. Ayniqsa, Isajon Sulton asarlarining asosiy qismini diniy-axloqiy mavzudagi asarlar tashkil etadi. Adibning nasriy bitiklari diniy-axloqiy g'oyalarning badiiy sintezini o'zida mujassam etgan asarlar sifatida o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Uning asarlaridagi bu sintez, faqat diniy yoki axloqiy masalalarga yo'naltirilmagan, balki badiiy va ruhiy ifodalarning uyg'unligini ta'minlab, o'quvchini chuqur ma'naviy izlanishga undaydi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Isajon Sulton hikoya va qissalarida diniy-axloqiy motivlarning badiiy sintezi va timsollarning yoritilishi”** tarzida nomlangan. Bobning *“Adib hikoyalarida diniy ramz va timsollarning yoritilishi”* deb atalgan birinchi faslida Isajon Sulton hikoyalarida diniy ramz va timsollarning qo'llanilishi tahlil qilindi. Yozuvchi asarlarida ko'pincha o'ylovchi, fikrlovchi, ma'nan baland, nozik tuyg'ular egasi bo'lgan qahramonlar taqdiri qalamga olinadi. Adib bugungi kitobxon didining yuksakligi, hissiyotlarining ingichkaligi, so'z zalvorini his qilish salohiyatiga ishonadi. Kechinma va tuyg'ularni moddiylashtirish, har bir so'zni joyida qo'llash, holatlarni manzaralashtirish, ramz va ishoralar tilida so'zlash, chigal o'ylar-u mubham iztiroblar, beadoq ishtibohlar haqidagi samimiy tasvirlar ana shu ishonchdan oziqlanadi. Isajon Sulton nasrida bugungi davr o'zbek adabiyotidagi izlanishlarga xos bir talay belgilar mujassam. Ularda ijtimoiy-axloqiy taraqqiyot yo'sinlari alohida shaxs ruhiyati orqali tasvirlanadi.

Adib olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Badiiy ijodni ko'ngil ishi deb bilgani uchun shaxsning o'z-o'zini va Ollohni tanish yo'lini tasvirlashga intiladi. Shaxsning bir qarashda anglash mushkul bo'lgan murakkab ruhiyati, hissiyoti va ko'ngil talpinishlarini badiiy tadqiq etar ekan, unga alohida betakror qadriyat sifatida qaraydi, ma'naviyatini turli rakurslardan turib kuzatadi. Isajon Sultonning *“Qismat”*, *“Manzil”*, *“Sofiya”*, *“Farishta”*, *“Bog'i eram”* kabi hikoyalarida inson ruhiyatining turfa qirralari, diniy-axloqiy tasavvurlari ramzlar vositasida go'zal ifodalanadi. Xususan, *“Qismat”* hikoyasida bir oila a'zolari – ota-ona, uch o'g'lon qismati, hayot tarzi, har birining betakror tabiati, fikrlash, o'ylash yo'sinlari baliq, kapalak, yo'l, tuman ramzlari orqali ochib beriladi. Hikoyadagi Ota obrazi mustabid tuzum qurboni ramzi hisoblanadi. U Sobiq SSSR zamonida rahbarlik lavozimida ishlagan. Hikoya qahramoni namoz o'qiydiganlar, ayniqsa rahbarlar va ularning yaqinlari ta'qibga uchragan paytlari otasining machitga borishini xohlamagani uchun mastlikda uni itarib yuborgan. Natijada, otasining ko'ziga qamish kirib, bir umr ko'r bo'lib qolgan va bolasini *“qamishday qurigin, iloyo”* deya qarq'agan. Shu sabab bir umr ishi yurishmaydi. Besamar, bir xildagi zerikarli, ma'nisiz va mashaqqatli ish – oxiri yo'q qamishzorda qamish o'rish bilan shug'ullanadi. Alamidan ichadi, mast holda ayoli va bolalariga azob beradi hamda dunyodan o'tib ketadi. *“Hikoyadagi voqealar diniy-islomiy qadriyatlar toptalgan, shu tariqa xurofot uchun keng yo'l ochilgan mudhish mustabid tuzum zamonida yuz bergani”*¹²ni ham unutmashimiz lozimki, mafkuraviy-sinfiy

¹² Норматов И. Етуклик жозибаси // Исажон Султон насри бадияти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2017. – Б.16.

yondashuv kuchaygan, oila a'zolarini bir-biriga dushman qilib qo'ygan muhit ham hikoya qahramonlarining achchiq qismatida o'z so'zini aytib turibdi. Kampir ona obrazi asarda mustahkam iymonli, soliha, mushfiq o'zbek ayoli timsoli sifatida gavdalanadi. Eridan qancha kaltak yegan bo'lishiga qaramay, Allohdan uning gunohlari kechirilishini so'raydi. Kichik o'g'il tilidan aytilgan quyidagi fikrlar ham Onaning iymon-e'tiqodli oddiy, sodda, kamsuqum o'zbek ayoli timsoli sifatida tasvirlaydi: "– Bu muborak baliq-da, – enamning ovozi qulog'imga kirdi... – Hazrati Yunus payg'ambarni yutib yuborgan baliqni avlodi-da bu... – Xudo taolo baliqni halol qilib yaratgan... – O'lganiyam halol, tirigiyam. O'shan-chun oyqulog'idan so'yib ham qo'ygan..."¹³. Ko'rinadiki, bu o'rinda yozuvchi "nubuvvat" motividan foydalanadi. Ma'lumki, "nubuvvat" motivi – asarda payg'ambarlar bilan bog'liq holatlarning keltirilishi"¹⁴, xususan ushbu jumlada ham ko'plab asarlarda keltirilgani singari Yunus alayhissalom va baliq motivi tilga olinadi.

Muallif hikoyada Katta o'g'il, O'rtancha va Kichik o'g'illar obrazlaridagi o'ziga xos xarakter-xususiyatlar, bir voqeaga uch xil yondashuvni mohirlik bilan chizadi, inson qismati uning bu dunyoda qilgan yaxshi va yomon amallariga bog'liq ekanligini bir oila taqdiri misolida ta'sirli ifodalaydi. Hikoyada voqealar rivojida har bir qahramonning ichki olami, shaxsiyati va Ota obraziga bo'lgan munosabati orqali din bilan bog'liq tushuncha va iboralardan foydalanilgan. Turli obrazlar nutqida ayrim so'z va iboralarning takroran qo'llanishi yozuvchining badiiy niyatini ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu takrorlar muallifning g'oyaviy-estetik qarashlarini o'quvchiga yetkazish vositasi sifatida xizmat qilishi bilan birga, yozuvchining badiiy iste'dodini ham namoyon etadi.

Isajon Sultonning "Manzil" hikoyasida ham diniy-axloqiy motivlar sintezini kuzatishimiz mumkin. Adibning shu kichkinagina hikoyasining ma'naviy yuki nihoyatda katta tosh bosadi. Hikoyadagi ma'no va tuyg'u haybatlari jihatiga adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam shunday ta'rif bergan edi: "Manzil" – yuki benihoya og'ir hikoya... U boshdan-oyoq ramz asosiga qurilgan. Hikoyada safar – go'yo inson umri bo'lsa, yo'lda uchraydigan gulzor-u cho'llar – hayotning shodligi-yu g'am-tashvishiga o'xshaydi. Manzil – sarob, negaki u orzulardan barpo etilgan bino..."¹⁵. Ma'lumki, "safar" motivi ko'pchilik asarlarda ifoda etilib, aksariyat hollarda "o'zlikka safar" ma'nosida keladi. Hamrohlari bilan ko'p yillik, uzoq safarga chiqqan hikoya qahramonining safari bir umrni tashkil qiladi. "Lison ut-tayr"ning asosiy voqealari qushlarning o'z joylarini to'g'ri aniqlolmagani va Hudhudning afsonaviy Semurg' degan adolatli qush haqida so'zlab berishi bilan boshlanadi. So'ngra Hudhud boshchiligida qushlar Semurg'ni izlab yo'lga tushadilar. Asarda 7 vodiy tasavvufda haqiqatga eltuvchi yetti bosqichning majoziy tavsifi sifatida namoyon bo'ladi. Bu vodiylar Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Fano kabilardir.

"Manzil"da ham hamrohlar: Muslim, Muhammad, Abdulla birgalikda o'zlari

¹³ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 1-жилд. –Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б.88.

¹⁴ Қобилов У.У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV-XV асрлар) Филол.фан.док.дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б.14.

¹⁵ Ҳамдам У. Ойдинбулоқ ойдинлиги // Исажон Султон насри бадиияти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2017. – Б.98.

uchun afsonaviy tilsimni izlab yo'lga chiqadilar. Ular ham buloqlaridan ko'z yoshi singari tiniq suvlari oqib yotgan go'zal bog'li vohalar; yastanib yotgan bepoyon sahro, gullab-yashnagan bir voha; qumlari qop-qora, o'z-o'zidan to'zon ko'tarilib turadigan o'lim sahrosi – Hazramavt; ko'llari shishaday tiniq, boshqa joyda unday husn ko'rilmaydigan odamlari (odamzod emas, parilar ekan) g'oyat go'zal – Ko'hi Qoflardan o'tib; ulkan, ulug'vor, g'oyat go'zal, billurdan bo'lgan, tungi yulduzlarning yog'dusida qoramtir tusda xiyol jilolanib, bag'rida turli ranglar tovlanib, goho sirtida ham akslanib o'ynaydigan – Tilsim vodiysi va Tilsim tog'iga yetib keladilar. Hazramavt – Qur'oni karimdagi “Baqara” surasining 214-oyati tafsirida ham uchraydiki, unda Muhammad (a.s.) huzurlariga mushriklar ta'qibidan zahmat chekkan bir guruh musulmonlar kelib: “Bizga yordam tilab, haqqimizga duo qilmaysizmi?!” – deganlarida Rasul (a.s) aytdilarki, sizlardan oldingi o'tgan ummatlarning ba'zilarini temir taroq bilan badanlarini go'sht va suyaklar aralash tirnashar, arra bilan ikki bo'lib chuqurga tashlashar, shunda ham ular o'zlarining haq dinlaridan voz kechmas edilar. Alloh taolo vaqti kelib bu dinni kamoliga yetkazganida, otliq odam San'odan to Hazramavtgacha yakka yo'lga chiqqanda ham, Alloh va bo'ridan tashqari hech narsadan qo'rqmay, xavf-u xatarsiz yo'l bosadigan vaqt kelgunicha sizlar shoshilyapsizlar”¹⁶, – deyiladi. Hikoyada har kim manzilga yetar yo'lni yo'lovchi sifatida qanday bosib o'tadi va qay holatda yetib boradi, degan savolga javob izlanadi. Xulosada esa kimdir kamolotga yetgan holda, kimdir esa aro yo'lda qolib ketishi, yana kimdir mashaqqat chekkan holda, kimlar ravon yo'l orqali borishi ko'rsatiladi.

Bobning *“Isajon Sulton qissalarida Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqini”* nomli ikkinchi faslida adibning “Avvalgilarga o'xshamas”, “Robiya Balxiy” qissalari tahlilga tortildi. Diniy-axloqiy bilim Isajon Sulton nasrining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Baxtiyor Nazarov bir o'rinda adib haqida: “Isajon Sulton “Qur'on”ni, “Injil”ni, “Tavrot”ni, Konfutsiy, Rumiy, G'azzoliylardan tortib Eynshteyn, Kyuri, Nyuton asarlarigacha chuqur o'rganganligini sezmaslik mumkin emas. Biologiya, farmakologiya, genetika kabi turli fan yo'nalishlaridan ham yaxshigina xabardor ekani seziladi. Umuman, uning asarlarida diniy ta'limotning teran falsafasi bilan bir qatorda, nihoyatda nozik nuqtalari ham bo'y ko'rsatib turadi”¹⁷, – deydi. Darhaqiqat, adib shaxsiyatidagi kuchli iymon va ijodkor sifatidagi og'ir mas'uliyat, ertangi kun kitobxonini ko'ra oladigan teran nigohdir. Yozuvchi qissalaridagi diniy obrazlar va ulardan ko'zlangan g'oyaviy maqsad ham kitobxon uchun alohida ahamiyatga ega.

Isajon Sulton “Avvalgilarga o'xshamas” qissasida dunyoning yaralishi, inson umri, hayot davomiyligi Alloh izmida ekanligini ta'kidlar ekan, bugungi globallashuv zamonida olimlarning vaqtni modellashtirish bilan bog'liq farazlarini ham keltirib o'tadi. Nuh payg'ambar to'fonini modellashtirishga harakat qilgan niderlandiyalik olimlarning hayratlanarli natijasi shuni ko'rsatganki, yer yuzida mavjud barcha suvlar unday to'fonni hosil qilish qudratiga ega emas ekan. Shu bois

¹⁶ Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири/таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Movarounnahr, 2020. – Б.33.

¹⁷ Назаров Б. Ирсият муаммоларининг бадий талқини // Исажон Султон насри бадийяти: илмий мақолалар, тақриз, адабий суҳбатлар, мактублар. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б.7.

niderlandiyalik olimlar oddiy yechimga kelib, “to‘fon sodir bo‘lmagan” degan fikrga borib qoyaqolganlar. Inson qanchalik zakoga ega bo‘lmasin, vaqtni o‘z tizginiga sola olmaydi, Alloh mo‘jizalari oldida bu yaratq doim ojiz. Asarda, aslida barcha hodisalar Alloh va uning irodasi orqali ro‘y beradi, degan g‘oya ilgari suriladi. Asardagi ikki obraz – adabiyot va matematika o‘qituvchisi qissa voqealarini harakatga keltiruvchi qahramonlardir. Bular orqali yozuvchi inson jismidagi Qalb va Aql o‘rtasidagi doimiy munosabatga ishora qiladi. Muallif ana shu munosabat(hamjihatlik va ziddiyat)ni ifodalashda Qur’oni Karim oyatlariga murojaat qiladi. Qissada Sulaymon, Nuh, Odam Ato, Ibrohim, Ismoil, Iso, Muso, Solih alayhissalomlar bilan bog‘liq “nubuvvat” motivi falsafiylikka asoslangan holda, badiiy sintez qilinadi. “Me’roj” motivi – Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning me’rojga chiqishi tasvirlari ham qissada salmoqli o‘rinni egallaydi. Unda osmonning eng quyi – birinchi qavatida hazrati payg‘ambarimiz insoniyatning otasi – Odam alayhissalomga yo‘liqdilar. Payg‘ambarimiz Osmonning keyingi qavatlarida Idris, Muso, Iso va Ibrohim payg‘ambarlar bilan uchrashib, salomlashib o‘tdilar va nihoyat yettinchi osmonga – Arshi a‘loga, Allohning Kursisining oldiga yetib bordilar va u yerda Yaratganning O‘zi bilan hamsuhbat bo‘lish nasib etdi.

Qissadagi yana bir parchada yozuvchi Tur tog‘i, Tuvo vodiysi, Safo va Marva joylari, Maryam onamiz haqida fikrlar bildiradi: “Yana o‘tsangiz, odamday ovoz chiqarayotgan oltin buzoqqa duch kelasiz, u yerda sizni yo‘ldan adashgan Somiriy kutib turadi. Bir qadam qo‘ysangiz qutlug‘ Tur tog‘ida, muqaddas Tuvo vodiysidasiz. Safo va Marva orasida suv izlab zir qaqshagan bir xotinni ko‘rasiz, shu asnoda bir so‘z aytsangiz, qalbingizda ham o‘shanday buloq ko‘z ochadi va olamda tengi yo‘q zilol bilan limmo-lim to‘lasiz! Yana, Maryam degan pok bir ayol suyangan xurmo daraxtiga duch kelasiz, unga suyansangiz, qalbingiz ichida Iso Masih qaytadan tug‘iladi!”¹⁸.

Tur – Arabistondagi tog‘. Tur tog‘ida – Tuvo deb atalgan muqaddas vodiya Muso alayhissalom boshqalarga nasib etmagan marhamatlarga, jumladan, Haq subhanahu va taolo bilan roz aytishish – bevosita so‘zlashish sharafiga muyassar bo‘lganlar. Yozuvchi asarda aynan Muso alayhissalom nomini keltirmasdan ushbu voqeaga ishora qiladi va ishorani anglashni kitobxon saviyasiga qoldiradi.

Yuqoridagi parchada keltirilgan: “Safo va Marva orasida suv izlab zir qaqshagan bir xotinni ko‘rasiz, shu asnoda bir so‘z aytsangiz, qalbingizda ham o‘shanday buloq ko‘z ochadi va olamda tengi yo‘q zilol bilan limmo-lim to‘lasiz!” jumllarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bunda adib Qur’oni karimda nomi keltirilgan Hojar onamiz va zamzam bulog‘iga ishora qiladi. Lekin yozuvchi ochiqdan-ochiq Hojar onamiz, Ibrohim alayhissalom, Ismoil alayhissalom, zamzam nomlarini keltirmaydi, buni topishni islomiy bilimi mavjud bo‘lgan kitobxon e’tiboriga havola qiladi. Ma’lumki, Safo va Marva Saudiya Arabistonining Makka shahrida joylashgan ikkita kichik tepalikdir. Hozirda ular al-Masjid al-Haromning bir qismiga aylangan. Musulmonlar haj va umra amallarini ado etish chog‘ida sa’y (ma’nosi: “izlash, qidirish yoki yurish”) deb nomlangan marosim doirasida bu tepaliklar orasida yetti marta borib keladilar. Ushbu arkon farzandi uchun ikkita cho‘qqiga suv

¹⁸ Исажон Султон. Алишер Навоий. – Т.: Adabiyot, 2021. – Б.454.

izlab, baʼzan yurib, baʼzan chopib borib kelgan Ismoil alayhissalomning onasi, Ibrohim alahissalomning ayoli Hojar onamiz (Dastlab Misr malikasi boʻlgan, keyinchalik qul qilingan va musulmonlikni qabul qilgan) sababli joriy qilingan. Hojar onamiz Safo va Marva orasida suv izlab yetti marta borib kelganidan keyin oxiri holdan toyib, chaqaloqlari Ismoilni yotqizib qoʻygan joyga qaradilar. U yigʻlab tovonlarini yerga urgan joydan suv chiqib, qumda oqib borardi. Hojar onamiz yugurib kelib: “Zam-zam” (toʻxta-toʻxta) deya suvning yoʻlini toʻsadilar. Shu tariqa zamzam yonida kun kechira boshlaydilar. Keyinchalik zamzam yaqinida Allohning irodasi bilan Hojar onamizning jufti haloli, Allohning paygʻambari Ibrohim alayhissalom hamda uning oʻgʻli Ismoil alayhissalom birgalikda Kaʼbani quradilar. Oʻz navbatida Ismoil alayhissalom Muhammad (s.a.v)ning katta bobosi hisoblanadi. Asarda ushbu maʼnolarga ishora qilinmoqda. Alloh taolo Qurʼoni karimning “Toho” surasida Muso (a.s.) bilan Somiriy oʻrtasida boʻlib oʻtgan hodisani bayon etadi. Muso (a.s.)ning oʻz vaqtida qaytib kelmaganidan foydalangan Horun as-Somiriy nomli kohin Isroil avlodlaridan barcha tilla taqinchoqlarni soʻrab oldi, ularni olovda eritib, buzoq shaklida but yasadi va uning ustiga Jabroilning oti tuyogʻi ostidan olgan bir siqim tuproqni sochib yuborgan edi, buzoq tirikdek moʻray boshladi. Somiriy boshchiligidagi yoʻldan ozgan kimsalar buzoqning atrofida tavof qilishib, raqs tushishib, xursandchilik qila boshladilar. (Somiriy Jabroil farishta Muso alayhissalomning oldiga kelganda, uning minib kelgan otining tuyogʻi tekkan narsalarga jon kirganini koʻrgan edi. Uning izidan bir siqim olib, uni buzoqning haykaliga sochadi va undan tirik buzoq kabi ovoz chiqadi). Muso alayhissalom Somiriyning buzogʻini olovda yondiradilar va kulini dengizga sochib yuboradilar, keyin qavmlariga shu dengiz suvidan ichishni buyuradilar. Kim buzoqqa sigʻingan boʻlsa, uning rangi sargʻayib keta boshlaydi¹⁹. Qissadagi yuqoridagi parchada ushbu diniy voqeaga ishora qilinadi.

Qissada yana fikrlarini davom qildiradi oʻqituvchi: “Hayot goho insonni manjinaqqa solib, olov ichiga otib yuboradi. Ammo Parvardigor salomat saqlaydi. Hoy, yaxshilar! Baʼzilaringiz hayot olovlari ichidan xuddi Ibrohim alayhissalomday sogʻ-omon chiqib kelmayapsizmi?”²⁰. Isajon Sulton ushbu parchada ham “nubuvvat” motivi va talmeh sanʼatidan mohirona foydalanib, Ibrohim alayhissalom va mushriklar voqeasiga ishora qiladi. Alloh taolo Ibrohim (a.s.)ni bobillik mushriklarga paygʻambar qilib yubordi. Bu qavmga Namrud ibn Kanʼon ibn Koʻsh podsholik qilardi. U xudolik daʼvosini qilgan edi. Ibrohim (a.s.)ning otalari Ozar butparast edi, oʻzi butlar yasab bozorda sotardi. Hamma bayram yigʻiniga ketganda, Ibrohim (a.s.) hamma butlarni sindirib chiqadi va eng katta butning boʻyniga boltani osib qoʻyadi. Namrud boshchiligidagi mushriklar katta miqdorda oʻtin jamlab, uni yoqib, keyin Ibrohimni manjaniqqa (qadimiy tosh otish quroli) solib olovga otadilar. Alloh taolo olovga: “Biz aytdik: “Ey olov! Ibrohimga salqin va omonlik boʻl!”²¹, – deb amr qildi. Bu holat “Anbiyo” surasining 69-oyatida keltiriladi. “Allohning qudrati va marhamati bilan Ibrohim (a.s.) olovning oʻrtasiga tushdilar, tutun va

¹⁹ Ibn Kassir. Qisasul-anbiyo. Qohira. – B.284.

²⁰ Исажон Султон. Алишер Навоий. – Т.: Adabiyot, 2021. – Б.455.

²¹ Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Movarounnahr, 2020. – Б.327.

alanga orasida ko‘rinmay qolib, olov yonib tugagandan so‘ng esa sog‘-salomat chiqib keldilar. Bu Ibrohim (a.s.) uchun berilgan payg‘ambarlik mo‘jizasi edi. Tarixchilarning yozishiga qaraganda, Ibrohim (a.s.) olovga otilgan joy Turkiyaning Urfa shahrida bo‘lib, hozirda ham mashhur”²². Qissada Isajon Sulton xuddi mana shularni nazarda tutadi.

Shu tariqa Navoiy payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning Arshi a‘lo (“Arshi a‘lo”, ya’ni yettinchi osmon ham adabiyotda motiv darajasiga ko‘tarilgan)ga chiqishini ta’riflar ekan, bu ta’rif uzoq davom etadi, bunda yana Mirrix Bahromi, Mushtariy, Zuhul, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Aqrab, Qavs, Jadiy kabi Alloh yaratgan maxluqotlar (osmondagi yulduz va sayyoralar)ning holati ham tasvirlanadi. Ushbu maxluqotlarning har biri adabiyotda motiv darajasiga ega deyishimiz mumkin. Bunda tashxis badiiy san’atidan unumli foydalaniladi. Ma’lumki, tashxis (arabcha – shaxslantirish) – jonlantirish badiiy san’atining bir turi bo‘lib, turli narsalar, hayvonlar, qushlar, o‘simliklar va boshqalarga insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni ko‘chirish san’atidir. Islom dinida Alloh yaratgan barcha maxluqotlarning Allohga tasbih aytishi ta’kidlanadi. Me’roj voqeasi doirasida adabiyotda tashxis holati, xususan tashxisni yuzaga keltirgan dindagi Alloh yaratgan borliqdagi har bir narsaning Yaratganga tasbeh aytishi, “tasbeh” motiviga ham qisqacha to‘xtalib o‘tishni joiz deb topdik.

Tasbeh aytish, ulug‘lash, poklash, nuqsonsiz deb yod etish kabi ma’nolarni o‘zida mujassamlashtirgan. Tasbeh aytish “Subhanalloh” kalimasini takrorlash bilan bo‘ladi. Borliqdagi hamma narsa o‘ziga xos yo‘l bilan Allohga tasbeh aytadi. Bu haqiqat “Isro” surasining 44-oyatida ham zikr qilingan:

“Yetti osmon, Yer va ulardagi bor jonzot Unga tasbeh aytur. Mavjud bo‘lgan barcha narsa hamd bilan Unga tasbeh aytur. Lekin sizlar ularning tasbehtarini anglamaysiz. Darhaqiqat, U halim va kechirimli zotdir”²³.

“Hadid” surasining 1-oyatida ham bu haqida ma’lumot keltiriladi²⁴. Boshqa suralarda ham shunga o‘xshash xabarlar bor. Imom Buxoriy va Imom Termiziy keltirgan rivoyatlarda Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu aytadi: “U zot tanovul qilayotgan paytlarida taomning tasbeh aytayotganini eshitar edik”²⁵.

Qissadan olingan yuqoridagi parchada keltirgan yozuvchi keltirgan Samud tuyasi haqidagi fikrlar ham Qur’oni karim va hadisi sharif ilmi bilan sug‘orilgan. Qur’oni karimning “Hijr” surasi, 80-oyatida “Alloh taoloning so‘zi: “Aniqki, Hijr (vodiy) egalari (Samud qavmi) ham payg‘ambarlarni, (xususan, Solihni) yolg‘onchiga chiqargan edilar”, – deya marhamat qilinadi. Hadisi sharifda esa: “Abdulloh ibn Umar (rz.) rivoyat qiladilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Hijrga kelgan o‘z sahobalariga: “Manavi qavmning (Samud) yeriga faqatgina yig‘lagan holingizda kiring. Agar yig‘lamasangiz, ularning yeriga kirmangki,

²² Rahmatulloh qori Obidov. Payg‘ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. (Qur’oni Karimda payg‘ambarlar siymosi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti) – T.: Movarounnahr, 2005. – B.38-39.

²³ Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири/таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Movarounnahr, 2020. – Б.286.

²⁴ O‘sha manba. – Б.537.

²⁵ Vahba Mustafo Zuhayliy. Shamoilul Mustafo. <https://siyrat.uz/maqola/10476>

sizlarga ham ularga yetgan musibat yetib qolmasin”, – dedilar”²⁶. Samud qavmi Allohning payg‘ambari Solihni yolg‘onchiga chiqaradi va Yaratganga imon keltirishni istamaydi. Ular Solihga ishonishlari uchun undan mo‘jiza ko‘rsatishni so‘raydilar. Shunda Solih Allohdan o‘ziga bir mo‘jiza berishini so‘rab duo qiladi. Alloh Solihning duosini ijobat qiladi va Solih mo‘jiza ko‘rsatib, xarsang toshdan tuya chiqaradi. Solih qavmni tuyaga ozor bermaslikka chaqirib, havzadan bir kun tuya, bir kun qavm suv ichishi lozimligini bildiradi (Bu haqida Qur‘oni karimning “Qamar” surasi 27-28-oyatlarida ham keltiriladi). Ammo, qavm tuyani so‘yib yuboradi, Solih va uning oilasini yo‘qotishga qasd qiladi. Shunda osmondan kuchli chaqmoq yuborilib, ular halok etiladi (“Zoriyot”, 44-oyat). Solih o‘ziga imon keltirgan kishilar bilan birga Falastindagi Ramla degan joyga borib, umrining oxirigacha shu yerda yashaydi.

Isajon Sultonning “Robiya Balxiy” qissasi tarixiy asar bo‘lib, unda X asrda Balxda hukmronlik qilgan Balx amiri Abdulloh ibn Kaabning qizi Robiya Balxiyning muhabbat tarixi hikoya qilinadi. Fors tilida she‘rlar yozgan birinchi mashhur ayol shoira va tasavvufiy shaxs – Robiya Balxiy hayoti, ichki kechinmalari va muhabbat yo‘lidagi sinovlari badiiy talqin qilingan bu qissada axloqiy barkamollikka intilayotgan imoni butun inson obrazi tasvirlanadi. Qissa shu “taqdiri azal”ning tafsilotlari-yu tavsiflari va shunga bog‘liq voqealar tasvirlari yo‘lida bitilgan go‘zal yaratq sifatida dunyoga kelgan. Muallif badiiy mahorati “taqdir” so‘zini “taqdir qalami”, “lavhul mahfuz”, “taqdir qushi”, “taqdir jallodi”, “taqdir sozandasi”, “taqdir yechimi”, “taqdir yoychisi”, “taqdir o‘yini” tarzida har bir voqeaga moslab keltirishida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Qissa xotimasi alohida ajratilgan bo‘lib, unda mumtoz asarlarning boshlanmasida keladigan Allohga hamd, payg‘ambarimizga na‘t (nubuvvat motivi) hamda o‘zidan oldingi ijodkorlar ta‘rifi beriladi. Ushbu xotimada payg‘ambarimiz Muhammad (a.a.v)ning aynan ismlari keltirilmaydi, ularga berilgan tashbeh va ta‘riflardan, xususan, “Uning rasuli”, “ikki dunyo saodati xabarchisi”, “koinot sarvari” jumllaridan payg‘ambarimizga ishora ekanligi anglashiladi.

“Robiya Balxiy” qissasida hatto musulmon ayolining ovozi ham mahram hisoblanishi, aka-singil munosabatlari, ishq mojarosi, “Zayn-al-arab” (Arab ziynati)²⁷ deya ta‘riflangan benihoya go‘zal, nomahramlarga ovozini eshittirmaslik uchun o‘rtada enaga orqali gaplashadigan, ilmda tengsiz qiz hikoyasi yozuvchining poetik mahorati, falsafiy tafakkuri hamda bilimi orqali ochib berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Romanlarda diniy-axloqiy motivlardan foydalanishdagi yozuvchi mahorati”** hamda uning birinchi fasli *“Boqiy darbadar” romanida Iso alayhissalom timsoli va ramziy darbadarlik tushunchasi*” deb nomlanadi.

“Boqiy darbadarlik” mavzusi dunyo adabiyoti uchun yangi mavzu emas, balki mangu mavzu va motivdir. Isajon Sulton esa milliy adabiyotimizda jahon adabiyotidagi “boqiy darbadar” motivi asosida bu mavzuga qo‘l urgan ilk adib

²⁶ Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-Жоме ас-саҳиҳ. 3-жуз. – Т.: Оltin kitob, 2024. – Б.117.

²⁷ Султон И. Қорақуш юлдузининг сири. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2019. – Б.241.

bo'ldi. Ma'lumki, "Turli-tuman asarlarga turtki bo'lgan bu voqea: qatl uchun olib ketilayotgan Iso alayhissalom devoriga suyanib bir oz tin olishni istagani uchun unga qo'l ko'targan va shu sababli Iso alayhissalom yer yuziga qaytguniga qadar olamda darbadar kezishga va insonlar nafratiga duchor bo'lgan bir etikdo'z voqeasidir"²⁸. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asari ham, aslida, ana shu syujet zamiriga qurilgan. Biroq uning asarida islomiy g'oyalar yetakchi o'ringa chiqadi. "Boqiy darbadar" romanida Iso alayhissalom timsoli va ramziy darbadarlik tushunchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, romanning asosiy motivlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Iso alayhissalom timsoli, o'zining ezgulik, sabr-toqat va adolat yo'lidagi kurashi bilan, roman davomida insoniyatning ijtimoiy va diniy vaziyatini aks ettiradi. "Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanida Olloh oliy hukmi va haqiqatiga qo'l ko'targanlarning ramzi bo'lmish, o'z qismati yetovidagi banda obrazi ifoda etiladi"²⁹. Asarda inson xokisorligi va pokligigina emas, balki Yaratuvchi qudrati, ilmi, jazosi, la'nati yoxud marhamati, keng ma'noda abadiyatdan-da yuksak martabasi ham ulug'lanadi. "Boqiy darbadar" romanida diniy-axloqiy motivlar asar syujetiga tabiiy tarzda singib ketgan. Romanda Xudoga isyon o'laroq yaratilgan sun'iy odamlar – genomalar obrazlari mavjud. Olimlar nurlanishlarga chidamli genoma yaratadi, biroq uning eng katta kamchiligi – u ko'r. Yana bir genoma haddan ziyod egiluvchan, lekin bu egiluvchanlikni ta'minlash uchun organizm bo'g'imlarga kerakli suyuqlikni yetkazib berolmaydi. Nihoyat, mukammal genoma yaratildi, lekin uning eng katta kamchiligi uning gaplarida ko'rildi: "Men kimman?", "Nega tug'ildim?" deya nima maqsadda yaratilganini bilish uchun Xudoni izlab yo'lga chiqdi. Asar yakunida asar qahramonlari Alloh yuborgan qum bo'ronidan qirilib ketadi va faqat osiy darbadar – etikdo'zgina qoladi. Romanda shuningdek, "nubuvvat" motivi asosida Xizr, Nuh, Sulaymon alayhissalomlar bilan bog'liq parchalar ham mahorat bilan badiiy sintez qilinadi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "*Diniy-axloqiy motivlar sintezi jarayonida yozuvchining badiiy mahorati ("Ozod", "Genetik" romanlari misolida)*" deb nomlanadi. Ushbu romanlarda diniy va axloqiy qadriyatlar sintezlanib, ular muallifning badiiy mahorati bilan uyg'unlashgan. "Ozod"da o'zi tug'ilib o'sgan elining ma'naviy hududlariga tafakkur bilan teran nigoh tashlayotgan hamda Alloh yaratgan borliq ichra insongina zoti oliy ekanligini anglab yetgan o'spirin, "Genetik"da esa bugungi o'zbek xalqining Odam Ato va Momo Havoga borib tutashadigan geni va xalq qonidagi buyuk bobokalonlardan meros iqtidor, Yaratuvchi va yaratilmishni faqatgina ilm orqali tanish mumkinligi tasvirlanadi.

"Ozod" romanida asosiy e'tibor inson axloqiy kamoloti va ma'naviy poklikka qaratilgan. Asarda diniy-axloqiy motivlar quyidagi jihatlar orqali ifodalanadi:

a) qahramonlarning ichki kechinmalari – Bosh qahramon Ozod asar boshidan oxirigacha o'z ruhiy olami bilan kurashadi va kamolot sari yo'lga chiqadi. Asar so'nggida Ozod o'z ismiga monand ruhiy-ma'naviy ozodlikka erishadi.

²⁸ Расулов А. Мангулик суви // Исажон Султон насри бадияти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. –Тошкент: Турон zamin ziyo, 2017. – Б.58.

²⁹ Мансубият. (Ж.Хушбоқ ва Исажон Султон суҳбати) // Исажон Султон насри бадияти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. –Тошкент: Турон zamin ziyo, 2017. – Б.284.

b) diniy va axloqiy qarashlar – Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy qarashlar asar syujetida uyg'unlashgan. Masalan, Alloh Sulaymon payg'ambarga shamolni bo'ysundirib bergani kabi, roman yakunida Ozod ham ma'naviy kamolotga erishgach, shamol Ozodga bo'ysunadi. Bu bilan Allohning hamma ne'mati inson uchun degan g'oya anglashilinadi.

c) axloqiy saboqlar – inson xatolaridan saboq chiqarishi, kechirimlilik va adolat g'oyalari yetakchi mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yangilanayotgan jamiyat kishisi bo'lgan, milliy istiqlol ta'sirida yashayotgan Ozodning ruhiyatida kechayotgan g'alayonlar va yomon fe'l-atvor, xulqlardan voz kechish, poklanish tasvirlanadi. Tasavvuf ta'limotidagi poklanish, insonning ruhiy va ma'naviy jihatdan tozalanganligi, uning xatolaridan, dunyoviy istaklaridan va "nafs"dan xalos bo'lishi kabi tushunchalar "Ozod" romanining bosh g'oyasiga singdirib yuborilgan.

Voqelikdagi narsa-hodisalar orasida bizga ko'rinmagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik aloqadorlik asosidagi ko'chimlar o'quvchini hayratga soladi, unga zavq bag'ishlaydi, shu bilan birga, ramziylik ham kuchli ma'nolarni tashishga xizmat qiladi:

1. "Ozod" romanida Ozodning onasi Dilorom tasviri shunday chiziladi: "Minglar aytdiki, ovozini eshitib tepasiga bormaganimda, uni ham gul deb tahmin qilgan bo'lardim, shunaqa go'zal, shunaqa chiroyli go'dak edi"³⁰. Adib Diloromni kitobxonga ilk marotaba tanishtirar ekan, uni gulga qiyoslaydi. Yozuvchi Dilorom obrazini tasvirlashda gul motivini go'zallik, nafislik va noziklik ramzi sifatida ishlatadi. Diloromni gulga qiyoslash orqali, yozuvchi uning ichki va tashqi go'zalligini, shuningdek, uning yuksak axloqiy va ruhiy sifatlarini ta'kidlamoqda, bu esa o'z navbatida uni poklik ramzi sifatida tushunish imkonini ham beradi.

2. "Dilda iymon, yurakda or-nomus bus-butun bo'lsa, Yaratganning irodasi anglanadi – "sir" pardasi ochiladi. Demakki, dil orom topadi. Binobarin, romandagi Dilorom ko'ngil orom oluvchi maskan. Bu maskan shu yurtning tosh-u tuprog'i, daryo-suvleri-yu yashil ekinzorlari. Unday bo'lsa, vatanga uning bir parchasiga bog'langan kimsa, inoyatga doxil bo'la oladimi. Chinakam vatan iymon butligidan so'ng anglanmaydimi?"³¹. Adabiyotshunos Islom Yoqubov tomonidan bildirilgan ushbu fikrning to'g'riligini ta'kidlagan holda, Diloromni pok va barcha unga qarab intiluvchi, uning yonida dillar orom oluvchi timsol darajasida tasvirlangan deya olamiz. Bu yerda Dilorom Vatan timsolida kelib, "Vatanni sevmog' – iymondandir" hadisi bilan mohiyatan uyg'unlik kasb etadi.

3. Shuningdek, asarda "Jism ham bir ko'za kabidir, uni to'ldirgan narsa insonning ruhidir"³² – deyilishi orqali jism ko'zaga va ruh mayga o'xshatiladi. Jismning ko'zaga o'xshatilishi, ruh bilan jismning tirik bo'lishi juda go'zal o'xshatishdir. Ushbu tashbeh bizga Umar Xayyom ruboiylarini ham eslatadi. Diniy manbalarga ko'ra ham insonning tuproqdan yaratilganligi ta'kidlanadi. Tasavvufda esa ko'ngil qadahga, may esa ishqqa qiyoslanadi. Bu jihatdan Isajon Sultonning jismni ko'zaga hamda mayni inson ruhiga qiyoslashi ham diniy-tasavvufiy mohiyat

³⁰ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б.113.

³¹ Ёқубов И. Юрак пўртаналаридан баҳс этувчи асар // Исажон Султон насри бадиияти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. – Тошкент: Тугон zamin ziyo, 2017. – Б.126.

³² Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б.87.

kasb etadi. Ushbu holatni adabiyotshunos N. Tosheva adib xalqimizning jon haqidagi mifologik tasavvurlariga suyanib, badiiy mushohada yuritganligi bilan bog'laydi va yozma adabiyotda bunday holatning sintezlashgan mifologema sifatida tasniflanishini ta'kidlaydi. Folklor syujeti to'liq holatda yozuvchi badiiy to'qimasi bilan sintezlashtirilsa yoki folklor motivi ijodkor yaratgan syujetning tugunidan yechimigacha ishtirok qilsa, sintezlashgan folklorizm bunyod bo'ladi.

4. Isajon Sultonning "Ozod" va "Genetik" romanlarida "shamol" motivi aslida ko'plab ma'naviy va ruhiy holatlarni ifodalovchi, chuqur va ramziy obraz sifatida ishlatilgan. Ushbu motiv ham zohirda "Ozodning hamrohi, botinda esa uning o'y-xayollari, fikrlari va qalbi"³³ timsolidir hamda asarning boshidan oxirigacha shamol obrazi orqali jonlantirish san'atidan mohirona foydalaniladi. "Shamol o'zgarish va o'zgartirishlar timsoli. U taqdirnlarni ham o'zgartirishi mumkin deydi yozuvchi"³⁴.

Shamol obrazi "Ozod" romanida qahramonning ichki kurashlari, fikrlari, qalbi va ruhiy holatlarini aks ettiruvchi kuch sifatida ishlatiladi. Shamolning hamrohlik qilishi, qahramonning harakatlariga, fikrlariga, hayotdagi yo'lini tanlashdagi o'zgarishlarga hamohang tarzda tasvirlanadi.

5. Asardagi lola obrazini ham turli ramziy ma'nolarda tushunishimiz mumkin. "Asar boshidanoq u chechakning sirayam lola emasligini anglab qolamiz. Nafaqat u, balki tevaragida ro'y bergan barcha hodisalar va narsalar boshqa mazmun kasb eta boshlaydi"³⁵. Ayrim adabiyotshunoslar lolani – "dunyoning tamali bo'lgan hikmat" tarzida izohlaydilar: "Niyati g'arazdan yiroq, so'zlari rost, amallari samimiy inson narsa-hodisalar botinini angelaydi. Demak, Ozod izlagan lola dunyoning tamali bo'lgan hikmatdir... Tangri bo'ysundirgan barcha narsa-yu jonzotlarni avaylasang Uning rahmatiga noil bo'lasan. Binobarin, lola o'sha minglab hikmatlarning bittasi xolos"³⁶. Albatta, lola obraziga ushbu nuqtayi nazardan ham qarashimiz mumkin.

"Genetik" romani "Irq bitigi"dagi Tangri haqidagi mulohaza bilan boshlanadi: "Tong ota boshladi, so'ng uning izidan yer yuzi yorishdi. So'ng quyosh chiqdi, hammayoq yorug' bo'ldi. Er yigit emaklab bordi, Tangriga yo'liqdi...". Asarning boshlanmasida o'sha mulohaza yana davom qildiriladi: "Ota, ajoyibligini qarang! Momaqaldiroq zo'r gumburlaydi-ya? Meniyam qattiq qichqirgim keldi. Chaqmoqni-chi ko'rdingizmi? Xudo o'sha qamchi bilan bulutlarni savalayapti..."³⁷.

Shuningdek, mazkur romanda "nubuvvat" motivini yuzaga keltirgan Muhammad, Nuh va Xizr alayhissalomlar bilan bog'liq voqealar asarga badiiy mahorat bilan sintezlashtirib yuboriladi. Shuningdek, Muhammad alayhissalomning ayoli, hazrati Sofiya onamiz va asar qahramoni, bolaning xolasi Sofiya timsolida "taqdiri azal" (lavhul mahfuz) va "ilohiy tush" motivlari orqali Alloh bitgan taqdiri azalning haq ekani, inson hayotining mohiyati xususida go'zal xulosalar chiqariladi. Romandagi diniy-axloqiy motivlar insonning ichki dunyosi, ma'naviy izlanishlari

³³ Тошева Н.Ш. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида): Филол.фан.б.фалс.док...дисс., – Т.: 2020. – Б.125.

³⁴ Nosirov A. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik (Uslubiy qo'llanma). SamDU. – Samarqand: 2014. – B.36.

³⁵ Nosirov A. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik (Uslubiy qo'llanma). SamDU. – Samarqand: 2014. – B.23.

³⁶ Ёқубов И. Юрак пўртаналаридан баҳс этувчи асар // Исажон Султон насри бадийати. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. – Тошкент: Турон замин зию, 2017. – Б.128.

³⁷ Исажон Султон. Қорақуш юлдузининг сирини. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2019. – Б.7.

va hayotning maqsadini anglashga bo'lgan intilishlar orqali tasvirlanadi. Romanda adib o'zini qiynayotgan savollarni kitobxon hukmiga havola qiladi hamda "insonning umri mazmunlar bilan to'lishi lozim va Egasini tanishi kerak" degan fikrni ilgari suradi.

XULOSA

Zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri bo'lgan Isajon Sulton nasrida diniy-axloqiy motivlar alohida ahamiyat kasb etadi hamda adib islom dinining tub mohiyatidagi ezgu g'oyalarni asarlariga mahorat bilan sintezlashtiradi. Isajon Sulton islom g'oyalarini talqin qilishda dinni chuqur bilgan, Qur'on va hadislar mag'zini to'laqonli anglagan, uni asarlarida bexato tushuntirgan va ifodalay olish iste'dodiga ega bo'lgan yozuvchidir. Adibning har bir asarining tub mohiyatida islomiy bilim yotadi va asar davomida diniy motivlar, o'zbek xalqining axloqiy tamoyillari, milliy qadriyatlari o'z badiiy ifodasini topa boradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy o'zbek adabiyotidagi diniy-axloqiy motiv va uning badiiy sintezi masalasi bir qancha tadqiqotlar uchun obyekt bo'lishi mumkin. Bu, shubhasiz, o'zbek adabiyotshunoslarining kelgusidagi muhim vazifalari qatoriga kiradi. Shu mulohazalarni hisobga olib, ish davomida olib borilgan nazariy-ilmiy masalalarni umumlashtirib quyidagicha xulosaga kelindi:

1. O'zbek adabiyoti azaldan diniy va milliy-axloqiy qadriyatlarning eng go'zal qirralarini uyg'unlashtirgan holda inson ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda. Ayniqsa, adabiyot orqali diniy tushunchalarning estetik talqini va ularning o'rnini o'quvchi ongida yangicha badiiy shakllarda namoyon bo'lmoqda. Isajon Sulton nasri ushbu xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

2. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida diniy-axloqiy motivlarning tahliliga e'tibor kuchaydi. Bu, avvalo, din va adabiyot o'rtasidagi munosabatlarning ochib berilishida, diniy qadriyatlarning zamonaviylik bilan uyg'un tarzda talqin qilinishida namoyon bo'ldi. Sho'ro davrida cheklangan diniy-axloqiy qadriyatlar mustaqillikdan so'ng adabiyotimizga qaytdi va Qur'on, hadis, diniy-axloqiy mazmun bilan boyitilgan ramziy obrazlar badiiy asarlarda o'z ifodasini topdi.

3. Diniy-axloqiy motivlar tushunchasining mohiyati, ularning syujet va obrazlar tizimidagi roli o'zbek adabiyotshunosligida turlicha talqin qilinmoqda. Ilmiy manbalar (H.Karomatov, N.Komilov, J.Bo'riyev, H.Karimov va boshqalar) asosida diniy motivlarning tasnifi, ularning funksional va semantik xususiyatlari, ramziy-majoziy qatlamlar bilan uyg'unligi yoritildi. Shu jumladan, motiv syujet va obrazlar harakatini yuzaga keltiruvchi, uni rivojlantiruvchi va amalga oshiruvchi vosita ekanligiga e'tibor qaratildi.

4. Isajon Sulton hikoyalaridagi voqelik ba'zida mavhum, ba'zan esa konkret makon va zamonda kechadi. Yozuvchi hikoyalarida janr poetikasiga mos ravishda ramziy-majoziy obrazlar, diniy-axloqiy motivlar diniy-falsafiy mazmuni ifodalashga xizmat qiladi. Isajon Sulton hikoyalarida diniy-axloqiy motivlar, ramz va timsollarni o'rganish, ularning badiiy asarlardagi o'rnini anglash yozuvchining ijodiy uslubini teranroq tushunishga yordam beradi. Uning ijodida mavzu turfaligi,

o‘ziga xos originallik, yangicha tamoyillar, betakror ramziylik, diniy-axloqiy motivlar sintezi ustuvorlik qiladi.

5. Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasida inson hayoti, taqdiri azal, qismat tushunchasining falsafiy mohiyati “yo‘l”, “tuman”, “ota”, “kampir” kabi ramzlarda yoritib berilgan. “Manzil” hikoyasida “safar” – inson umri ramzi sifatida tasvirlanadi hamda “safar” motivi orqali har kim manzilga yetar yo‘lni yo‘lovchi sifatida qanday bosib o‘tishi va qay holatda yetib borishi Hazramavt, Ko‘hi Qof, Tilsim vodiysi, Tilsim tog‘i kabi ramziy obrazlar vositasida ko‘rsatilgan. “Sofiya” hikoyasi ham ramziylikka asoslangan, hikoyadagi Sofiya – bo‘ron nomi bo‘lib, u oddiy tabiat hodisasi emas, balki Allohning qudrati va Unga bo‘lgan cheksiz muhabbat ramzi sifatida gavdalanadi.

6. Isajon Sulton qissalarida inson kamoloti, ma‘naviyati masalasiga alohida urg‘u beriladi va shu jihatdan ham adib nasrida diniy-axloqiy motivlar, Qur‘on oyatlari va hadislarning badiiy talqini alohida o‘ringa ega. Baxtiyor Nazarov bir o‘rinda adib haqida “Isajon Sulton “Qur‘on”ni, “Injil”ni, “Tavrot”ni, Konfutsiy, Rumiy, G‘azzoliylardan tortib Enshteyn, Kyuri, Nyuton asarlarigacha chuqur o‘rganganligini sezmaslik mumkin emas. Biologiya, farmakologiya, genetika kabi turli fan yo‘nalishlaridan ham yaxshigina xabardor ekani seziladi. Umuman, uning asarlarida diniy ta‘limotning teran falsafasi bilan bir qatorda, nihoyatda nozik nuqtalari ham bo‘y ko‘rsatib turadi”, – deya aytib o‘tadi. Isajon Sulton o‘z qissalarida bevosita va bilvosita Qur‘oni karim va hadisi shariflardan foydalangan hamda teran diniy mushohada bilan qahramonlarning ma‘naviy va ruhiy dunyosini ochib bergan.

7. “Avvalgilarga o‘xshamas” qissasi Qur‘on oyatlari va hadislarning badiiy talqinini o‘z ichiga olgan, ularni zamonaviy mavzular bilan uyg‘unlashtirgan asardir. Muallif qissada payg‘ambarlar obrazlarini ramziy ma‘noda ishlatib, ularni qo‘llash orqali zamonaviy insonning muammolarini yoritadi. Qissada Sulaymon, Nuh, Odam Ato, Ibrohim, Ismoil, Iso, Muso, Solih alayhissalomlar bilan bog‘liq “nubuvvat” motivi falsafiylikka asoslangan holda, badiiy sintez qilinadi, “me‘roj” motivi (Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning me‘rojga chiqishi tasvirlari) ham qissada salmoqli o‘rinni egallaydi.

8. “Robiya Balxiy” qissasi orqali yozuvchi Alloh yozgan taqdiri azal, inson qismati, pok muhabbat, hayot ma‘nosi va ma‘naviy qadriyatlar haqidagi o‘ylari bilan o‘quvchini mulohazaga chorlaydi. Fors tilida she‘rlar yozgan birinchi mashhur ayol shoira va tasavvufiy shaxs – Robiya Balxiy hayoti, ichki kechinmalari va muhabbat yo‘lidagi sinovlari badiiy talqin qilingan bu qissada axloqiy barkamollikka intilayotgan iymoni butun inson obrazi gavdalantiriladi.

9. “Boqiy darbadar”da Iso alayhissalom va ramziy darbadarlik tushunchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, romanning asosiy motivlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Adib muqaddas manzilgozlarini yo‘qotib, daydilik qismatiga aylangan, Egasini va o‘zligini anglab yetishi lozim bo‘lgan zamonaviy darbadarlarni tasvirlaydi. Dunyo adabiyotidagi “Boqiy darbadarlik” mavzusi milliy adabiyotimizda ilk bor Isajon Sulton romanida o‘z aksini topdi. Romanda,

shuningdek, “nubuvvat” motivi asosida Xizr, Nuh, Sulaymon alayhissalomlar bilan bog‘liq parchalar ham mahorat bilan badiiy sintez qilinadi.

10. “Ozod” va “Genetik” romanlarida diniy-axloqiy motivlar insonning ichki dunyosi hamda hayotning mohiyatini anglashga xizmat qiladi. “Ozod”da o‘zi tug‘ilib o‘sgan elining ma’naviy hududlariga tafakkur bilan teran nigoh tashlayotgan hamda Alloh yaratgan borliq ichra insongina zoti oliy ekanligini anglab yetgan o‘spirin, “Genetik”da esa bugungi o‘zbek xalqining Odam Ato va Momo Havoga borib tutashadigan geni va xalq qonidagi buyuk bobokalonlardan meros iqtidor, Yaratuvchi va yaratilmishni faqatgina ilm orqali tanish mumkinligi tasvirlanadi.

11. Isajon Sultonni ko‘plab asarlarida Tangri tabiatni insonga xizmatkor qilib qo‘yganligi, Alloh o‘z jilvasini eslatib turishi uchun bu olamni timsollar va ishoralar olami qilib yaratganligi, zamonaviy dunyo ham ongimizda bo‘ron hosil qilishi lozimligi tasvirlanadi. Shu bilan birga, adib Sobiq tuzum kishanlaridan xalos bo‘lgan o‘zbek kishisi shu mahalgacha ko‘rmagan yuzlab girdoblar orasida qolgani va hamma ham o‘zidek, sodda, samimiy bo‘lmagan hamda turli e‘tiqoddagi insonlarni o‘zida jamlagan dunyoga teran nigoh bilan qarashi lozimligi haqidagi g‘oyalarni tasvirlaydi. Misol uchun, tabiat unsurlari bo‘lgan shamol – “Ozod” romanida ulug‘ donishmand, “Boqiy darbadar”da Yaratganning rahmati, qudrati va jazosining ramzi, baliq – “Qismat” hikoyasida xato va gunohlari uchun ayanchli taqdirga duchor bo‘lgan osiy sifatida gavdalanadi.

12. Isajon Sulton asarlaridagi diniy-axloqiy motivlar romanlarning markaziy tasviriga aylanib, hikoyaning badiiy tuzilishiga ta’sir o‘tkazadi. Romanlarda diniy-axloqiy qadriyatlar bilan birgalikda, iymon, nafs, muhabbat, adolat kabi g‘oyalar ham o‘rin olgan. Shu tarzda, yozuvchi diniy va axloqiy o‘g‘itlarni faqat an’anaviy shaklda emas, balki zamonaviy va murakkab badiiy vositalar yordamida yoritadi. Shu tariqa, badiiy mahorat va motivlarning sintezi jarayoni asarlarning o‘ziga xosligini ta’minlagan.

13. Isajon Sulton ijodida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshilik diniy-axloqiy motivlar orqali teranroq ko‘rsatiladi. Qahramonlarning ichki kurashlari, nafi bilan janglari, o‘zligini anglash va diniy qadriyatlarga sodiq qolish o‘rtasidagi jiddiy nizolarni tasvirlashda yozuvchi badiiy mahorati o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

14. O‘zbek adabiyotida alohida xususiyatga ega bo‘lgan diniy-axloqiy motivlarning badiiy sinteziga zamonaviy adabiyot taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida qarash o‘rinlidir. Qur’oni karim va hadislar mohiyatini o‘zida mujassam qilguvchi diniy-axloqiy motivlar mumtoz an’analar davomiyligini, shuningdek, diniy mavzuning zamonaviy talqinlaridagi shakliy-uslubiy yangilanishlarni adabiy tafakkur tarzidagi o‘zgarishlar bilan uyg‘un tahlil qilish lozim bo‘ladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/30.12.2019.fil.55.02 AWARDED
SCIENTIFIC DEGREES AT URGENCH STATE UNIVERSITY NAMED
AFTER ABU RAYHAN BERUNI**

**URGENCH STATE UNIVERSITY NAMED AFTER ABU RAYHAN
BERUNI**

KAMILOVA NAZOKAT SAIDJONOVNA

**THE LITERARY SYNTHESIS OF THE RELIGIOUS-ETHICAL
MOTIFS IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN**

10.00.02 – Uzbek literature

THE ABSTRACT

of the doctor of philosophy(PhD) dissertation in Philological science

Urgench –2025

The theme of the Philosophy doctor (PhD) dissertation has been registered by Higher attestation commission at the Ministry of higher education, science and innovations by the number B2024.3.PhD/Fil2728.

The dissertation thesis has been submitted in Urgench state university named after Abu Rayhan Biruni.

The dissertation abstract is published in three languages (Uzbek, Russian, English (summary)) on the website of the Scientific Council (www.urdu.uz) and on the information and educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor: **Rakhimova Bekposhsha Bahodir kizi**
The candidate of philological sciences, associate professor

Official opponent: **Boltayeva Gulchehra Shokirovna,**
Doctor of philology, professor

Tosheva Nilufar Shirinboyevna,
Doctor of Philosophy in Philological Sciences

Leading organizations: **Karakalpak State University**

The dissertation defense will take place at the meeting of the Scientific Council PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 at Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni on "20" november 2025 at 9:00. (Address: 220100, Urgench city, H. Alimdjon street, Building 14. Tel.: (99862) 224-67-00; Fax: (99862) 224-67-00, e-mail: www.fil-ik.urdu.uz).


The dissertation is available for review at the Information Resource Center of Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni (registered under No 868). (Address: 220100, Urgench city, H. Alimdjon street, №14. Phone: (+99862) 224-67-00). e-mail: arm@urdu.uz.

The abstract of the dissertation has been distributed on "30" october 2025.
(The Protocol № 61 of the registration record dated "30" october 2025)




D.Q.G'ayipov
Chairman of the Scientific Council
awarding the academic degree, Doctor of
Philological Sciences, Professor


S.S.Atajonov
Scientific Secretary of the Scientific
Council awarding the academic degree,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological
Sciences, Associate Professor


A.D.O'razboyev
The Chairman of the Scientific Seminar
under the Scientific Council awarding the
academic degree, Doctor of Philological
Sciences (DSc), Professor

INTRODUCTION (The Philosophy Doctor (PhD) Dissertation Abstract)

The Relevance and Necessity of the Dissertation Topic. In world literary studies, the relationship between religion and literature is considered one of the pressing scholarly issues. Numerous studies have been conducted on how literature draws nourishment from religion, its strong need for it, and the integration of religious and ethical concepts into fiction literature. In the spiritual and moral worldview of every nation and people, religious and ethical concepts hold a distinct place and significance. Today, the science of literary criticism is increasingly focused on the in-depth study and analysis of the synthesis between religion and literature. It is well known that the synthesis of religious motives in literary works serves as an important tool for realizing the authors' ideological and aesthetic intentions. Therefore, the study of literary works that reflect religious and ethical motives highlights the relevance of this issue in literary scholarship.

In contemporary world literary studies, scientific and aesthetic principles are increasingly expanding toward the study of literary works influenced by the Qur'an and Hadith, in which national and universal moral values are expressed. These works are being examined through the lens of their artistic exploration of human spirituality and life, as well as from the perspective of national and universal human values. In recent times, the inclusion of religious and ethical themes in newly created works of literature has become a notable phenomenon. Such works emphasize the philosophical and psychological analysis of faith and belief, self-awareness, the human psyche, the inner world, and moral-ethical consciousness. As a result, in world literature, depictions of universal values such as historicity, national identity, and human goodness within the relationship between the world and humankind are becoming more profound, and the artistic interpretation of religious and ethical motives is being revealed in increasingly distinctive ways.

In Uzbek literary studies as well, this trend is becoming a defining feature of the renewed mindset emerging as a result of independence. In our national literature, which plays a vital role in elevating the spiritual values of our people, religious motives are being given increasingly broad representation. As the President of our country, Shavkat Mirziyoyev, has emphasized: *"We consider it one of our most important tasks to convey to our people – especially the younger generation – as well as to the international community, the humanistic essence of Islam. Islam is, above all, a religion of peace and friendship, harmony and unity, knowledge and enlightenment. We must never forget this supreme truth"*³⁸. In the literary works created during the years of independence, both direct and indirect interpretations of religious and ethical themes can be observed. In particular, the works of Isajon Sulton – People's Writer of Uzbekistan and a prominent figure in the current literary process known for his numerous short stories, narratives, and novels – stand out for their strong emphasis on religious and ethical subject matter. His prose is distinguished by thematic diversity, depth of meaning, richness in symbolic and

³⁸ Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси./ The New Uzbekistan Strategy – Тошкент. Uzbekistan, 2021. – Б.310.

allegorical imagery, and the artistic interpretation of religious motives. Isajon Sulton's literary style is marked by innovation and originality, unique principles, distinctive symbolism and allegory, and the dominance of religious and Sufi motives.

Today, many researchers are conducting studies on various aspects of his work, such as literary craftsmanship, philosophical depth, mythological perspectives, folklorism, and symbolism. The literary synthesis of religious and ethical motives occupies a special place in the writer's works and remains a subject that demands further scholarly investigation. Therefore, the study of this issue underscores the relevance and urgency of the topic.

The results of this research to some extent contribute to the implementation of the tasks outlined in the following documents as Presidential Decree No. PF-4947 dated February 7, 2017, "*On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan*"; Presidential Decree No. PF-5416 dated April 16, 2018, "*On Measures to Fundamentally Improve the Activities in the Religious and Educational Sphere*"; Presidential Resolution No. PQ-3271 dated September 13, 2017, "*On the Program of Comprehensive Measures for the Development of the System of Publishing and Distribution of Book Products, Promotion of Reading and the Culture of Book Reading*"; as well as the speech titled "*The Development of Literature, Art, and Culture – a Solid Foundation for the Spiritual Upliftment of Our People*", and the proposal initiated by Uzbekistan at the 72nd session of the UN General Assembly for the adoption of a special resolution entitled "*Enlightenment and Religious Tolerance*", along with other relevant regulatory and legal documents in the field.

Correspondence of the Research with the Priority Directions of Development of Science and Technology in the Republic. This dissertation has been conducted in accordance with the priority area of development of science and technology in the Republic, namely: "*Development of an Information-Based Society and a Democratic State In Social, Legal, Economic, Cultural, Spiritual and Educational Spheres, as well as the Development of an Innovative Economy*".

The Degree of Study of the Problem. In world and Russian literary studies, numerous research works have been conducted on the topic of Islam and its influence on artistic literature, the theory of motives, and the interpretation of religious and ethical themes. In particular, the scientific and theoretical aspects of the issue have been explored in the fundamental works of scholars such as A.Metz, R.Nicholson, J.Nurbakhsh, A.Afifi, R.Frager, O.Sukhareva, V.Bartold, G.Tsikoumova, I.Silantiev, and many others³⁹.

³⁹ Мец А. Мусульманский Ренессанс. (The Muslim Renaissance) – М.: Наука, 1973; Nikolson R.F. Literary History of the Arabs. London.1903; Нурбахш Дж. Иисус глазами суфиев. – М.: Мистика; Фрагер Р. Kalp nafs ve ruh / Түрік тіліне ауд.: Ибрахим Капаклыкая. (Heart, Ego, and Soul). – Стамбул: Геленек, 2011; Лев Толстой. Хазрати Мухаммад. – М.: 1909; Крачковский И. Арабская поэтика в IX веке (Arabic Poetics in the 9th Century) / Изб. Соч. – М. Академия наук, Т.П. – 1956; Афибий А. Ислом тушунчасига доир мақолалар (Articles on the Concept of Islam); Сухара О.А. Ислам в Узбекистане. – Т.: 1960; Бартолд В.В. Учение мусульманского Ренессанса (The Doctrine of the Muslim Renaissance). Соч.Т.ВИ. – М.: Наука, 1963; Гарин И. Пророки и поэты. (Prophets and Poets) – М.: Терра, 1992; Куделин А. Арабская литература: поэтика, стилистика, взаимосвязи (Arabic Literature: Poetics, Stylistics, Interconnections). – М.: Языки славянской культуры, 2003; Цыкумова Г.М.

In Uzbek literary studies, especially during the years of independence, a number of research works have emerged focusing on the reflection of Qur'anic themes in national literature, the convergence of religious and secular literature, as well as the analysis of the distinctive features of works with religious and ethical themes. These studies have paid close attention to the content and essence of such literary works, the artistic interpretation of religious motives, and their unique characteristics. Based on scholars' opinions and conclusions, the research on this topic can be conditionally divided into two groups:

The first group includes the monographic studies of scholars such as Hamidulla Karamatov, Shuhrat Sirojiddinov, Ma'rifat Rajabova, Tohir Shermuratov, Olimjon Davlatov, Bahrom Jalilov, and Jaloliddin Bo'riyev, who have approached the subject of religion from the perspective of analyzing the masterpieces of our classical literature.⁴⁰ In these studies, broad attention has been given to the artistic interpretation of Qur'anic verses and sacred Hadith ideals in the works of prominent representatives of our classical literature – such as Alisher Navoi, Yusuf Khos Khajib, Ahmad Yassawi, Durbek, Nosiruddin Burhoniddin ogli Rabghuzi, Boborahim Mashrab, and Zahiriddin Muhammad Babur. In particular, the religious and ethical motives in the masterpieces written by Alisher Navoi, the pinnacle of the nation's literary heritage, serve as an essential source in promoting the ideal of the perfect human being (*komil inson*) and in studying the influence of Islam on the art of literature.

The **second group** includes the research studies of scholars who have approached the topic from the perspective of the gradual development of religious themes, as well as the reflection of moral-aesthetic and universal human values in modern literature created during the years of independence. In the literature of the independence period, the scope of works addressing religious, ethical, spiritual, and educational themes has expanded, and the volume of research in this area continues to grow. In particular, numerous articles and specialized studies on this topic have been published by scholars such as Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, No'monjon Rahimjonov, Hakimjon Karimov, Bahodir Karimov, Nurboy Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Tohir Shermurodov, and Sayyora Raimova⁴¹.

Религиозные и философские идеи, мотивы, образы в художественном мире (Religious and Philosophical Ideas, Motifs, and Images in the Artistic World). – Москва. 2005; Силантев И.В. Мотив и системе художественного повествования. – Москва. 2006.

